

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM

VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX KAFEDRASI

Bitiruv malakaviy ish

**Buxoroda ilmiy muassasalarining vujudga kelishi va faoliyati
tarixi (XX asr 20-30-yillari)**

Tarix ta'lism yo'nalishi

bitiruvchisi: Hikmatov Anvar

Ilmiy rahbar: tarix

fanlari nomzodi

Raxmonov K.J.

Buxoro – 2018 yil

M u n d a r i j a

Kirish.....	3
1-bob. Buxoroda ilmiy muassasalarning vujudga kelishi	
1.1. XX asr boshlarida Buxoro amirligida ma’naviy-ilmiy hayot va uning o‘ziga xos tomonlari	7
1.2. 1920-1924 yillar BXSR hukumati davrida faoliyat yuritgan ilmiy – tarixiy muassasalar.....	19
2-bob. Buxoroda ilmiy muassasalarning faoliyati	
2.1. 1925 -1991 yillar sovet davri tarixiy muassasalari: ziddiyat va muammolar.....	32
2.2. Mustaqillik yillarida Buxorodagi ilmiy muassasalar faoliyati va ularning tarixiy merosimizni o‘rganishdagi xizmatlari.....	38
Xulosa va tavsiyalar.....	46
Foydalanimagan adabiyotlar ro‘yxati.....	48

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekistonning eng yangi tarixida muhim bosqich sifatida kechayotgan so‘nggi yillar (2016-2018)da ilmiy tadqiqotlarga, ilmiy muassasalarining faoliyatiga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, O‘zbekiston Oliy attestatsiya qo‘mitasi kabilarni ishini yanada takomillashtirish bilan bog‘liq chora-tadbirlarning hayotga joriy etilayotganligi fikrimizning dalilidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoevning 2016 yil 18 oktyabrdagi Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimida “Ta’lim va ma’rifat-tinchlik va bunyodkorlik sari yo‘l” mavzusidagi nutqida: “...Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ajdodlarimizning muqaddas dini bo‘lgan islomning jamiyatimizdagi o‘rnini qayta tiklash bo‘yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. 1999 yil Toshkentda Markaziy Osiyoda birinchi Islom universiteti ochildi. Mamlakatimizda 10 ta diniy ta’lim muassasasi, jumladan, Toshkent islom instituti, 9 ta o‘rta maxsus o‘quv yurti faoliyat ko‘rsatmoqda. Ana shu ta’lim maskanlari orasida XVI asrda bunyod etilib, ilm-fanni keng yoyishga xizmat qilgan Buxorodagi Mir Arab va Toshkentdagi Ko‘kaldosh madrasalari bor”¹.

Buxoro ajdodlari aql zakovatining necha asrlar naryog‘idan kelajak avlodga qoldirgan buyuk va beba ho ne’mati. U markaziy Osiyoda SHarq shaharlari milliy o‘ziga xosligini to‘laligicha saqlab qolgan yagona shahardir. Qadimiy tor ko‘chalar turli-tuman bozorlar, savdo va saylgoh maydonlari o‘zida SHarq ruhi va issiq nafasini aks ettirib turibdi. Buxoroiy sharif yuragimizga jon qadar yaqin bu ulug‘ va muqaddas maskan nafaqat Islom

¹ Mirziyoev SH.M. “Таълим ва маърифат-тинчлик ва бунёдкорлик сари йўл” // Қаранг: Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. –Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. –Б.30.

olamida, balki jahonda ham dovrug‘ taratgan buyuk go‘shalardan biridir.² Mashhur tarixnavislarning shahodat berishlaricha, u amirliklari – xonliklar davrida 800 yil mobaynida mamlakat poytaxti bo‘lib, kelganligi ham Buxoroning ijtimoiy–siyosiy va madaniy – ma’rifiy hayotda o‘z mavqega ega jonligini ko‘rsatadi. Buxoro ilm fan, madaniyat arxitektura sohasida jahon sivilizatsiyasiga sezilarli tasir ko‘rsata olganligi, bu dargohda tibbiyot, hadis ilmining sultonlari, valmillulloh zotlar kashol topganligi, alqissa, uning ikkinchi makka sifatida qadrlanishi bu zamin naqadar e’zozga faxr – iftixorga moyilligadan nishonadir.³ O‘rta Osiyo va butun SHarq mamlakatlaridagi katta shaharlardan biri bo‘lgan. Buxoro shahrining qadimgi va hozirgi zamon tarixi ko‘pgina tarixiy va badiiy adabiyotlarda o‘z aksini topgan. Buxoro tarixini o‘rganishda dastlab arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan materiallarga murojat qilamiz, keyinchalik yozma manbalarga yuzlanamiz. Buxoro tarixi haqida ko‘pgina manbalar yaratilgan. Ular 10 asrga oid lekin Buxoro tarixiga oid ko‘pgina yozma yodgorliklarda faqat bittasi bizgacha etib kelgan. Bu ham esa Buxorolik tarixnavis Abu Bakr Muhammad Ibn Ja’far al Narshaxiy tomonidan yozilgan “Buxoro tarixi” asaridir. Bu asar asosan O‘rta Osiyoda arablar istilosi natijasida islom dinining tarqilish va undan bevosita oldingi darslar hamda IX – XII asrlardagi Buxoro va unga yaqin shahar, qishloqlar xalqlarning iqtisodiy, madaniy ijtimoiy, siyosiy tarixiga old muhim ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan. Bundan tashqari Buxoroning tarixiy topografiyasiga old ma’lumotlar kiritilgan. “Buxoro tarixi” asarida tarixni va arxeoglarni qiziqtiradigan ko‘pgina ma’lumotlar mavjud: masalan: Varaxsha haqida Varaxsha bu Buxoroning katta shaharlaridan biri bo‘lib, bu erda o‘sha zamonlarda Buxoroda hukumronlik qilayotgan Buxoro xududlarning saroylari joylashgan edi, bundan tashqari bu shahar Buxoroning iqtisodiy va siyosiy hayotda katta ahamiyatga ega edi. Tarixchilarga ma’lumki, Buxoro haqida

² Жаҳон ҳазинаси жавоҳири. Бухоро. 1997 йил. –Б.7-9.

³ Ўша жойда.

Ruzbexonning “Mehmonnoma”, Xofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma”, Muhammad YUsuf Munshiyning “Tarixi Muqimxoniy” kabi asarlarda qimmatli ma’lumotlar uchraydi. Mana shu kabi adabiyotlarda (1917 yilda) yana bir Buxoroning XVII asr oxirgi choragiga tegishli tarixiy asar yaratildi. Bu Xoja Samandar Termiziyning “Dasturul - muluk” asaridir. Buxoro tarixiga oid asarlar qadimdan to hozirgacha yaratilib rivojlantirilib borilmoqda.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Ko‘rib chiqilayotgan tadqiqotim doirasida, ayniqsa, mustaqillik yillarida kengayib, ushbu muammoni yoritishga imkon qadar xolisona yondashildi. Tarixchi olimlarning asl manbalarga tayangan holda yaratgan qator tadqiqotlari vujudga keldi. Bu borada F.Qosimov, B.Ergashev, Q.Rajabov, U.Rashidov, L.Muhammadjonova, SH.Hayitov, S.Xolboev, G.Ostonova kabi mualliflarning ishlari⁴ e’tiborga loyiqidir.

Jumladan, tarixchi olim, professor SH.Hayitov tomonidan O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasining 2-tomida “**Buxoro ilmiy jamiyatı**” maqolasi bosilgan bo‘lib, unda olim ilk bor bu jamiyatning tariximizni o‘rganishdagi ahamiyati va rolini ochib bergen.

⁴ Эргашев Б. Из истории становления и развития общественно-политических идей джадидизма, идеология младобухарцев: Автореф. дисс. ... докт. филос. наук. - Ташкент, 1993; Қосимов Ф. Драма революции и правда истории (формирование историографии советизации Бухары и Хорезма). - Бухара, 1996; Ўша муаллиф. Бухоро Республикаси тарихшунослиги. - Бухоро, 1997; Рашидов У. Бухоро Республикасида қаршилик харакатининг биринчи босқичи (1920-1922 й.) // Бухоро тарихи масалалари (маколалар тўплами). - Бухоро: Бухоро, 1996; Ўша муаллиф. Бухоро Ҳалқ Республикаси (1920-1924). - Бухоро: Бухоро, 2003; Ўша муаллиф. Бухоро босқини ва совет тузумига қарши кураш. - Бухоро, 2008; Мухаммеджанова Л. Общественно-политическая ситуация в Бухаре в начале XX века и развитие демократического движения (1908-1920гг.): Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. - Ташкент, 1999. Ражабов Қ. Мустакил Туркистон фикри учун мужодалалар (1917-1935 йиллар). - Тошкент: Ўзбекистон, 2000; Ўша муаллиф. Развертывание освободительного движения в Бухаре // Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. - Ташкент: Шарқ. 2000. - Б. 522-553; Ўша муаллиф. Бухоро ва Хоразм Республикаларидаги куролли мухолифат кураши (1920-1924) // Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. - Тошкент: Шарқ, 2000; Ўша муаллиф. Бухоро ва Хоразм Ҳалқ Республикалари: давлатчиликнинг демократик шакли // Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари. - Тошкент, 2001; Ўша муаллиф. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. - Тошкент: Маънавият, 2002; Ҳайитов Ш., Раҳмонов К. Бухоро Ҳалқ Республикаси ва Германия: ҳамкорликнинг тарихий лавҳалари (1920-1924 йиллар). - Тошкент: Фан, 2004; Ҳайитов Ш., Бадриддинов С. ва б. Бухоро Ҳалқ Совет Республикаси: иқтисодиёт, ижтимоий сиёсат, маданий ҳаёт. - Бухоро: Бухоро, 2005; Холбоев С. Бухоро амирлигининг олтин хазинаси. - Тошкент: Фан, 2008; Астанова Г. Историография политических процессов в Бухаре в 1920-1924 гг.: Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. - Ташкент, 2008.

Men tomonimdan tanlangan “**XX asr Buxorodagi ilmiy muassasalarning faoliyati**” nomli bitiruv –malakaviy ishning **maqsadi** shundaki, Buxoro tarixini va madaniyatini o‘rganishda ilmiy muassasalarning o‘rni va roli qanday bo‘lganligini ochib berishdir.

Mavzu oldiga qo‘yilgan maqsadni bajarish uchun vazifalar belgilab oldim:

- XX asr boshlarida Buxoro amirligida ma’naviy-ilmiy hayot va uning o‘ziga xos tomonlarini tahlil etish;
- 1920-1924 yillar BXSR hukumati davrida faoliyat yuritgan ilmiy – tarixiy muassasalarning xizmatlari nimalardan iborat bo‘lganligini ochib berish;
- 1925 -1991 yillar sovet davri tarixiy muassasalarning rolini ko‘rsatish;
- Mustaqillik yillarida Buxorodagi ilmiy muassasalar faoliyati va ularning tarixiy merosimizni o‘rganishdagi xizmatlarini qayd etish.

Bitiruv –malakaviy ishning ilmiy ahamiyati. Ishda ilmiy muomalaga kiritilgan ma’lumotlar va chiqarilgan xulosalardan Buxoro tarixi va ilmiy muassasalari faoliyatini yangicha baholashda qo‘llash mumkin. Ishimda bayon qilingan material va fikr-mulohazalardan O‘zbekiston tarixi fanidan darslarni samarali tashkil qilish uchun foydalanish mumkin.

Ishning amaliy ahamiyati shundan iboratki, XX asr boshlari Buxoro davlatchiligi masalalarini o‘rganishda, bayon qilishda, mакtablar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilariga mavzu tushuntirilayotganda qo‘sishcha ma’lumot bo‘lib xizmat qiladi.

Ishning tuzilishi va hajmi. Ushbu bitiruv-malakaviy ishim kirish, 2 ta bob, 4ta bo‘lim, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

1-bob. Buxoroda ilmiy muassasalarining vujudga kelishi

1.1. XX asr boshlarida Buxoro amirligida ma’naviy-ilmiy hayot va uning o‘ziga xos tomonlari

XIX asr oxiri – XX asr boshida Buxoro fuqarolarining barcha qatlamlari sermazmun va ko‘p qirrali ma’naviy – madaniy hayotni boshdan kechirdilar. Buxoro davlatidagi ma’naviy – madaniy hayotning moddiy asoslarini hamda uning ijtimoiy ildizlarini mamlakat iqtisodiyotining kuchayib borishi hamda aholi tarkibidagi ro‘y berib borgan munajimlar, o‘zgarishlar tashkil etadi. SHu bilan jahonning qator mamlakatlarida iqtisodiy – ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlar ham ma’lum darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Mamlakatdagi ayniqsa Buxorodagi ma’naviy – ilmiy muhit o‘zining sermazmunligi bilan, ilohiy – dunyoviy, ilm – ma’rifat adabiyotning yuqori darajaga ko‘tarilganligi, hunarmandchilik, zargarlik, savdo tijorat, me’morchilik ishlarining o‘z zamonasi uchun ancha yuqori darajada tashkil etilganligi bilan ajralib turadi. SHu zaminda XX asrga kelib mamlakatda tobora kengayib, borgan ijtimoiy harakat vujudga kelgan. Uning mohiyati mamlakat voqeligini amalga bo‘lgan o‘zgarishlar yotilib kelgan yangi ijtimoiy – ma’rifiy g‘oyalarga moslashtirish uchun intilishlardan iborat edi. Ham ma’rifiy – madaniy jarayonlar, ham ijtimoiy harakat mamlakat xalq ommasi ining turli qatlamlari faoliyat va shuningdek xalq etuk namoyondalari salbiy harakatlari ijodi natijalari edilar.

Buxoro mamlakati xalqining amir hokimiysi ag‘darilgan davrigacha rivojlanib kelgan ma’rifati, madaniyati, umuman ma’naviyatini asr davomida tarkib topgan insoniy qadriyatlar, diniy – ma’rifiy, ilmiy –axloqiy,

yaratuvchilik sa'nati sohasidagi turuvchilar hamda an'analar yig'indisi boy moddiy yozma me'roslar tashkil qilgan.¹

Ma'naviyat shuningdek, o'z vataniga, tiliga sadoqat, uning tarixiga, chuqur hurmat, din ahli, olamu-shuaro, savob o'rgatuvchilarni e'zozlash, ijodiga intilish bilan ajralib turar edi. Uning tarkibiy qismlarini quyidagilar tashkil qilgan: yosh avlodni savodxon qilish va axloqiy tarbiyalash, islom dini, shariyat, qator dunyoviy fanlar sohasidagi bilimdon, mutaxasislarni etishtirib chiqarish, jarayonlari, tarbiyaviy axloqiy mazmundagi asarlar yaratish, kutubxonalar, ulardagi kitoblar, bilimlar boyligi adabiyoti, san'at, me'morchilik obidalari, hunarmandchilikning qator turlari, shaharlar ko'rinishlari, aholi qatlamlarining ma'rifat va xayr – sahovat yoshlarni qo'llab – quvvuatlashi qo'llash va shu kabilar.¹

Xalq ommasi ichidan ko'zga ko'ringan adabiyot – madaniyat namoyondalari, islom dini arboblari o'sib chiqqanki ularning faoliyati mamlakat ma'naviy hayotida beqiyos bo'lgan. Mamlakatdaga ma'naviy – madaniy muhitning boy va sermazmunligi erli xalqlar etnografiyasi sohasidagi yirik mutaxasislardan biri O.A.Suxareva quyidagicha ta'riflagan: "SHaharlarda jumladan Buxoroda fan, adabiyot, san'atning turli ko'rinishlari rivojlangan, ko'p obidalar to'plab kelgan madaniy boyliklar to'plagan..., unda qo'l yozma kitoblarning maxsus bozori bo'lgan bu bozor XIX asr oxiri XX asrda bor edi... Buxoro shahrida madrasalar soni ko'p edi."²

Buxoro davlatida jumladar maorif va madaniy sohalari bo'yicha statistik kuzatishlar olib borilgan. Maktablar masalasini olib ko'rganda, bu sohada sinfdan – sinfga o'tkazish guvohnoma topshirish tizim bo'lman. SHu sababli mamlakat aholisining ma'naviy - madaniy saviyali raqimlar vositasi bilan faqat nisbiy aniqlash mumkin. Boshlang'ich savod o'rgatgan maktablar, shaharlar va qishloqlardan machitlar qoshida bo'lgan. Maktabga qatnagan

¹ "Бухоро тарихи сахифалари". Бухоро 1996 йил. 201-203 бетлар.

¹ Бухоро тарихи сахифалари. Бухоро. 1993 йил. 104-105 бетлар.

² Сухарева О.А. истории городов Бухарского конства историко – этнографические очерки. Т. 1958 год.

o‘g‘il bolalarni machit imomi – xotibi yoki imom maktabdorlar, qiz bolalarni Otin oyi o‘qitganlar. XX asr boshida Buxoro shaxrida 218 machit bo‘lgan, aholisi 70 ming kishi tashkil qilgan, o‘rtta hisob bilan bir machitda 320 aholi va 50-60 xonodon to‘g‘ri kelsa, faqat Buxoro shahrida 16360 atrofida bola qatnagan.³ Maktab ba’zida madrasa ham bo‘lgan. Masalan: Imami Bahri Hamid madrasasi oldidagimaktabda 200 o‘quvchi savod chiqargan.⁴ Qiz bolalar 10 – 11 yoshda maktabga qatnashni to‘xtatganlar.

Jamiyat turli qatlamlarida bolalarga ayniqla qizlarga oilada ta’lim berish tajribasi keng tarqalgan. Iqtidorli va ma’lum bilimlarga ega bo‘lgan yoshlar o‘qitishni madrasalarda davom ettarganlar.¹ Mamlakatning uzoq – yaqin tumanlaridan qo‘shti mamlakatlardan va ba’zi yirik yurtlardan o‘qishga kelganlar ma’lum sinovdan so‘ng qabul qilishganlar. Buxoroning o‘zida 170 ga yaqin madrasalar bor edi.² Kichik 8 -10 hujrodan to 100 ta va undan ortiq hujralari bo‘lgan madrasalar bor edi. Buxoroda Mirzo Ulug‘bek madrasasi, Garkushon, Ko‘kaldosh, Jo‘y bor, Mir Arab, Tursunjon madrasalari va bir necha eng yirik madrasalar ham bo‘lgan. Faqat XIX asr davomida Buxoro shahrining o‘zida 60 ga yaqin madrasalar qurilgan. so‘ngra amir davrida ham madrasalar va boshqa inshootlar qurilgan. XX asr boshida poytaxt madrasalarida 10 mingga yaqin talabalar o‘qigan, ba’zi madrasalarga 10 lab mudarrislari mashg‘ulotlar olib borganlar. Bu o‘quv maskanlari mudarrislari, imomlar va boshqa xizmatchilarning shuningdek talabalarning ham moddiy ta’midot manbaini ko‘p sonli vaqorlar daromadi tashkil qilgan. “Vaqt” jurnaliga qo‘srimcha qilib chiqarishgan “SHo‘ro” jurnalining bergen batafsil ma’lumotlariga qaraganda birinchi jahon urushi arafasida Buxoro madrasalarining raqorlaridan kelgan daromadalari katta mablag‘ni – to‘rt mingdan etti yuz qirq ikki ming tangani tashkil etadi. Ja’farxo‘ja

³ Бухоро тарихи сахифалари. Бухоро 1999 йил. 48-49 бетлар.

⁴ Ремпель. Л.И. Далёкое и близкое. Бухарские записи. Т. 1981 год . 255 стр.

¹ Бухоро тарихи сахифалари. Бухоро. 1999 йил. 49 бет.

² Ремпель. Л.И. Далёкое и близкое. Бухарские записи. Т. 1981 год. 255 стр.

madrasasining 40 yaqin mudarrislarning har biri yiliga 2 ming tanga maosh olganlar. Talaba necha vaqt va qanday o‘qiyotganiga qarab vaqf daromadidan moddiy ta’milangan. Iqtisodi mahkam oila bolalari chetdan mablag‘ olmaganlar. Amir Muzaffar davriga taaluqli hujjatdan ma’lumki, madrasaning ayrim talabalari amirlik maoshi bilan ta’milanganlar. Madrasada o‘qitish tizimi mazmunining yangi talabalariga moslashtirib borishi keng tus oldi. Olimxon qurdirgan madrasaga “Dorul - umri” – ilmlar maskani, o‘chog‘i – deb nom berildi, unda har xil dars beruvchi mualimlar tayinlandi. Davlat boshlig‘i hokimi mutloq tomonidan yangicha o‘quv maskanining bunyod etilishi va unga o‘ziga xos nom berilishi ro‘y berib borgan o‘zgarishlar, eshijlar nuqtai nazaridan diqqitga sazovordir.¹ Madrasalarda o‘qitish muddati turlicha bo‘lgan, uni bitirib chiqish talabalarning diniy bilimlarini, ilm-fanni egallashlaridagi yutuqlarga bog‘liq edi. Unda ta’lim olganlar o‘z zamonasining bilmdon kishilari edilar. Buxoroda madrasa tahsillarini o‘tib – qaytganlar o‘z yurtlariga nufuzli va e’zozli kishilar bo‘lganlar.² Katta mehr va mahorat natijasida paydo bo‘lgan kitoblar xalq ma’naviyati durdonalarini tashkil qilgan.

Buxoroning o‘zida XX asr boshida, yirik madrasalar qoshida o‘n bitta katta kutubxonalar bo‘lgan. Buxoro madrasalarida kutubxonalar maxsus binolarda joylashgan, ularda harorat va havo namligi kuzatib borilgan, kitoblar sifatli qog‘ozlarda yozilib charim muqovalar bilan muhofaza qilingani bilan maxsus charm sandiq (yaxdon)larga saqlangan. Mamlakatning kitob boyligi chet ellardan keltirilgan nodir asarlardan ham tarkib topgan. XX asrda kitoblar kelgindilar tomonidan sotib olib keltirilgan. Keyingi davrda novbatma – novbat, hatto urush bo‘lib turgan 1915 va 1916 yillarda qator mutaxasis sharhshunoslar Buxoroga kelib, qo‘l yozmalar xarid qilib Rossiyaga olib kelganlar.

¹ Амир Сайд Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. Тошкент, “Фан”, 1991, 8-бет.

² Шу китоб: 17 бет.

O‘rta Osiyodan ketilgan mingga yaqin qo‘l yozmalarining ko‘p qismi Buxoroga xarid qilingan.

1915 va 1916 yillarda Buxoroga sharqshunos V.A.Ivanov kelib Petrburg Osiyo muzeyi uchun 1100 jilddan ortiq nodir kitoblarni olib ketgan va ular muzeyning “Buxoro koleksiyasini” tashkil qilgan.

Ayniqsa Abdurauf Fitrat va uning bir gruh safdoshlari o‘qishni tugatib Buxoroga qaytganlaridan so‘ng ilmiy – ma’rifiy xarajat qizg‘in tus olib yangi maktablar xususiy tarzda ochila boshlandi. Rossiyada 1917 yil fevral burjda inqilobi Buxoro amirligidagi siyosiy muhitga ta’sir qilmay qo‘ymaydi. Endi jadidlar ochiqdan – ochiq siyosiy talablar bilan chiqqa boshladilar. Abdurauf Fitrat jadidlarning siyosiy dasturini ishlab chiqib Buxorodagi amirning mutloq hukumronligini konstitutsion tuzumga asoslangan hukumronlik bilan almashtirishni taklif qildi. Amir tomonidan rad etilgan, jadidlar Toshkent va Samarqandda jon saqlab qolib siyosiy, kurashni davom ettiradilar. 1920 yil sentyabrda frunze boshliq qizg‘in qo‘shin yordamida Buxoroni vayron etadilar. Haqiqatdan ham shaklan Buxoro xalq Respublikasi tashkil etiladi, ammo sho‘ro qo‘shin kuchlari respublikani tark etishmaydi. Buning oqibatlarini Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo‘jaev va boshqa jadid arboblari bir necha yildan keyin his qilishadi. 1923 yilda Fayzulla Xo‘jaevning Moskvada uzoq davolanayotganligidan foydalanib, sho‘rolar tashabbusi bilan o‘tzazilgan Buxoro markaziy Ijroiya: Qo‘mitasining yig‘ilishida Abdurauf Fitrat, Ataulla Xo‘jaev, Muinjon Aminov, Sattor Xo‘jaev singari erk sevar rahbarlar bo‘lmag‘ur tuhfalar bilan obro‘sizlantirilib, lavozimlaridan bo‘shatildilar va Buxorodan badarg‘a qilindilar. Fitrat 1923 – 1925 yillarda Moskva, Lelingradda yashadi. Badiiy va ilmiy ijod bilan mashg‘ul bo‘ldi.

Fayzulla Xo‘jaev hukumat boshlig‘i etib sayinlanishidan keyin Fitrat Samarqandda, Toshkentda yashadi. Madaniy – sha’rifiy faoliyat bilan shug‘ullandi. Lekin mustaqillik orzu – umidlari u yaratgan badiiy asarlarda o‘z ifodasini topdi. Fitrat 1937 yil hibisga olinib, 1938 yil Toshkentda

millatimizning boshqa erk sevar farzandlari qatori otib tashlandi. Bolsheviklar Abdurauf Fitratning jismini yo‘qotgan bo‘lsalar ham u yaratgan buyuk asarlarini xalq xotirasidan o‘chirib tashlay olmadilar, endi bu asarlar badiiy me’rosimizning bebaho durdonalari sifatida ardoqlanib qayta nashr etilmoqda. Buxoroning yotoqmi farzanddi Fayzulla Xo‘jaev 1896 yilda savdogar oilasida tug‘ildi. Ubaydulloxo‘ja o‘g‘lini zamonaviy tijoratchi qilib tarbiyalash maqsadida 1907 yilda Moskvaga olib borib etuk muallimlar tarbiyasiga topshiradi. Fayzulla bu erda uch yil ta’lim olgach Buxoroga siyosiy tuzumni o‘zgartirish zaruriyati to‘g‘risida muayyan fikrlar bilan qaytadi. Jadidlar partiyasini tashkil etadilar va ishni amirlidagi maktab – maorifni naloh qilishdan boshlaydilar. Bu erda Abduvohid Burhonov, Usmonxo‘ja Hamidxo‘ja singari Turkiyada tahsil ko‘rgan yoshlar bolalarga ta’lim beradilar. 1920yil sentyabrida qizil qo‘sishin yordamida amirlik tuzilishi ag‘darilganidan so‘ng esa sho‘rolar mafkuraviy g‘uzum ko‘rsata boshladilar. Bu davrga kelib u sho‘rolar hokimyatida O‘zbekistonning milliy mustaqilligiga erishishi hamxayol ekanligini tushungan edi. Hali 20 yillarning o‘rtalarida buning oqibatida respublikada unga qarshi siyosiy kompaniya boshlanib, ayrim ilgaridagi tanaffuslar bilan 1937 yilgacha davom etdi. Oxir oqibatda U. Nikolay. Buxoroni boliq guruhining a’zosi sifatida hibega olinib 1938 yil martida Moskvada otib tashlandi. Jamiyatda faoliyat yuritgan tarixchilardan biri – Abduvohid Burhonovdir.

Munzim taxallusi bilan she’rlar bitgan bu Buxorolik ziyoli bir umr xalqqa xolisona hurmat qilish ishqini bilan yashadi. SHaharning Muhammad SHarif madrasasi xujralarning birida faqrona turmush kechirgan. Mirzo Abduvohid otasidan meros qolgan yordam olinadigan butun daromadni ma’rifiy maqsadga sarf etadi.¹ Uning dastxati nihoyatda nafis bo‘lib, Buxorolik biron Mirzo kollegrafiya san’atida unga teng kela olmasdi. Mirzo Abdulvohid yangi maktabning afzalliklarin namoyish etish maqsadida 1908

¹ Наимов Н. «Бухоро жадидлари». Тошкент 2000 йил 13-14 бетлар

yilda ota – onalar, din arboblari amaldorlarni xususiy maktabga taklif qilib, bolalarning ko‘rgazmali imtihonini o‘tkazdi. Imtihon paytida uning nazoratchilari ikkiga bo‘linib qolishdi. Buxoroning taqimi muftilaridan biri bo‘lgan mullo Ikrom boshchiligidagi gruh yangi maktab faoliyatini yuksak baholab, ularning tarmog‘ini kengaytirishni, hatto madarsa ta’limini ham shu usulga ko‘chirishni tavsiya etdi.

Rossiyadagi inqilobdan so‘ng jadir yangi bir safda turib, amirlikda demokratik o‘zgarishlarni talab qila boshladilar. Jadidchilar harakati ikkiga bo‘linadi:

Mirzo Abdulvohid boshliq o‘n guruh qurbanlar sonini kamaytirish uchun ko‘p sa’iy – harakatlar qildi. Uning bevosa ishtirokida respublikada yangi maktablarning keng tarmog‘i vujudga keltirilib, ularda ta’lim olishga xotin – qizlar ham jalb qilindi. Mirzo Abdulvohid mana shunday fidoiy kamtarin inson bo‘lib, butun umri mustaqillikka teng yo‘l bilan erishish orzu – umidlari bilan yashadi. U 1934 yilda uzoq davom etgan kasalikdan so‘ng vafot etdi. SHu davrning etuk namoyondalaridan biri Sadriddin Ayniy (1878-1954) taniqli yozuvchi va jamoat arbobidir. Buxoroda tug‘ilib o‘sgan Ayniy 20 asrning boshlarida madaniyat va ma’rifat o‘chog‘i bo‘lgan bu shaharning ijtimoiy – ma’naviy muhitida kamol topdi. U shaharda eng avvialo Buxorolik ilg‘or ziyorining fikrlarini band etgan teran g‘oyalarni qunt bilan o‘rgandi.

Ularning ta’sirida o‘zining adabiy tarixiy – publishtik asrlarini yaratdi. Sadriddin Ayniy Buxoro amirligi tarixiga katta e’tibor bilan yondashadiki, uning asarlari manbashunoslarimiz tarixchilar uchun g‘oyat qimmatli ahamiyatga ega. U tarixiy mavzularda qator tadqiqotlar yaratdi. SHu bilan birga uning xalqining urf – odati, xulq – atvori ijtimoiy munosabatlar to‘qnashushi, kishilarningadolat uchun kurushchanligi haqqoniy yoritib bergen. Badiiy asarlari Buxoro tarixi bilan bevosa bog‘liqdir. Ayniying Buxoro tarixiga old yirik asarlar sirasiga “Mang‘it amirlari tarixi” va “Buxoro inqilobi

tarixiga” doir materiallar nomli kitoblarni kiritish mumkin. “Mang‘it amirlari tarixi” bir yarim asr Buxoroda hukmronlik qilgan mang‘itlar dinostiyasi tarixiga bag‘ishlanadi. Ayniy bu asarni Ahmad Donishning “Mang‘it dinastiyasi” saroy kotibi Mirzo Azim Soliy Bo‘stoniy solnomalari va boshqa manbalarga asoslanib yozgani uchun bunga tarixiy asar deb qarash mumkin. Ayniy yuz bergen voqealarni xolisona o‘z shaxsiy kuzatuvi asosida yozgani uchun ham bizga tarixiy manba sifatida juda ahamiyatlidir.¹ Ayniyning Buxoro tarixiga bag‘ishlangan asari “Buxoro inqilobi tarixiga old materiallar” kitobidir. Bu asar xalqni ma’rifatli qilish va yangi usuldagи maktablar tarafdoi bo‘lgan jadidlar qolaversa yosh buxoroliklarning rolini yaxshi tushunishimizga yaqindan yordam berdi. “Buxoro inqilobi tarixiga old materiallar” 1921 yildan yozilgani uchun ham muhimdir. Jadidlar harakatida ishtirok etgan va ular bilan doimo birga bo‘lgan Sadriddin Ayniy ma’lumotlarni to‘playotgan vaqtida jadidchi – yosh buxoroliklarga juda to‘g‘ri munosabatda bo‘ladi. 1930 yil oxirida yozgan “Qisqacha tarjimai hol”ida bizga ma’lum hol jadidlarga noto‘g‘ri baho bergan. SHu davrning ziyolilaridan biri Abdulqodir Muhiddinov 1892 yilda Muhiddin Mansurovning xonadonida tug‘ilgan oilada uch o‘g‘il voyaga etib ularning barchalari jadidchilik harakatida faol qatnashdilar.

Abdulqodir Muhiddinov eng faol yosh Buxoroliklardan biriga aylanib, amirlik tuzishni ag‘darish uchun ko‘p sa’yi harakatlar qildi.² U o‘lkada koperativ harakatini rivojlantirishi tashabbuskori bo‘lib, “Birinchi Buxoro o‘rtoqligi” aksionerlik jamiyatini tashkil qildi va sanoat aloqalarini kengaytirishga kiritdi. 1921 yil avgustda BXRMI qo‘mitasi raisi vazifasida ishlayotgan Abdulqodir Muhiddinov siyosiy dasturini Buxoro xalq Respublikasi II qurultoyi minbaridan turib rasman ma’lum qildi. 1934 yilda Abdulqodir Muhiddinov Millatchilikda ayblanib otib tashlandi. Rossiya

¹ Инсониятнинг илмий – маданий меъроси З минг йилликда. Тошкент. 1997 йил. 53 бет.

² Наимов Н. «Бухоро жадидлари». Тошкент 2000 йил 19-20 бет.

burjua – inqilobidan keyin Musajon Saidjonov va Abdurauf Fitrat muvaqqat hukumatga telegramma yo‘llab Buxoro amiri jadidlariga erkinlik berish uchun unga ta’sir ko‘rsatishni iltimos qiladilar.

Musajon Saidjonov jadidlar o‘rtasida birinchilardan bo‘lib amir hokimiyati bilan siyosiy to‘qnashuvlarga qarshi chiqdi. 1920 yilda jadidlar bilan aloqani buzib, ilmiy – ma’rifiy faoliyat bilan shug‘ullanadi. 1925 yildan keyin O‘zbekiston tarixiy obidalarini muhofaza qilish qo‘mitasiga boshchilik qildi. U 20 yillar boshida Abdurauf Fitrat bilan hamkorlikda Buxoroda kutubxonachilik muzey ishini yo‘lga qo‘ydi. Milliy san’atni rivojlantirishga katta hissa qo‘ydi. Musajon Saidjonov nafaqat Buxoro balkim Samarqand, Xiva, SHaxrisabe tarixining bilimdonlaridan edi. Afsuski u kelgusi avlodlargaeros sifatida qoldirgan. “Buxoro tarixi”, “SHayboniynoma”, “Buxoro atrofida joylashgan maqbaralar”, “CHil duxtaron”, “Masjidi Kalon” va yana o‘nlab asarlar hamon qo‘lyozma tarzida Toshkentdagi SHarxshunoslik institutida saqlanmoqda. 1937 yilning oxirida Musajon Saidjonov boshqa safdoshlari singari ko‘p o‘tmay qatl etildi.

Mustaqilligimizning 9 yili may oyining 12 muborak juma kuni ufqda bosh ko‘targan quyosh poytaxtimiz markazidan oqib o‘tuvchi Bo‘zsuv qirg‘og‘ida ajib bir manzara yog‘dulari bilan yoritdi. O‘zbekiston Prezidenti I.Karimovning tashabbusi bilan bu erda mustamlakachilik davri qurbanlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida “SHaxidlar xotirasi” xiyoboni barpo etildi. Munday inshoat uchun Bo‘zsuv daryosining yoqasi tanlagani bejiz emas. 30 yillarning oxirida qorong‘u tunlarda shu yaqinda joylashgan xibexonardon o‘nlab begunoh maxbuslar keltirilib, otib tishlanganlar.¹ Xalqimizning suyukli farzandlari Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid CHo‘lpon, Atoulla Xo‘jaev, Abdulqodir Mihiddinov, Musajon Saidjonov, Said Ahroriy o‘nlab, yuzlab va minglab istiqlo fidoiylari mana shu muthich ko‘prik ostida qatl etilganlar. Mustaqilligimizning

¹ Наимов Н. «Бухоро жадидлари». Тошкент 2000 йил 46-47 бетлар.

dushmanlari yarim asr mobaynida ularning muborak ismi – sharifini xalqimiz xotirasidan o‘chirib tashlash uchun hamma ishni qilishdi, ularning farzandlarini tahqirlab, xo‘rlashdi. Ammo haqiqat o‘tda kuymaydi, suvda cho‘kmaydi va qachonlardir ro‘yobga chiqadi.

Nodir kitoblar, qo‘l yozmalar, fashantlar, osari – atiqalar savdosi tarixan ma’rifiy jarayonga dahldor mamlakatlak uchun xos bo‘lib kelgan Buxorodagi kitoblar osori – atiqalar buyumlarni sotib olib Rossiyaga keltirganligiga kelsak, bu yo‘l bilan u erdagи kutubxonalar va muzeylarni boyitish ko‘zda tutilganligi tobiy xol edi. Ulug‘ davlatchilik siyosati, sharq sivilizatsiyani teran mazmuni va tutgan mavqeini etarlicha tushunib etmaslik va mensimaslik yana shunda ko‘rinadi. Qator hollarda eng nodir itoblar qo‘l yozmalar, asori – atiqa buyumlar asl qiymatlardan ancha arzon narxlarda sotib olib ketilgan. Madaniy – moddiy sohalarda aloqalar ikki tomonlama, teng va o‘zaro manfaatini asoslarda olib borilmagan, shu nuqtai nazardan Buxoro madaniy boyliklariga ziyon etkazilgan. Mamlakatda kechgan voqealarga kelganda shuni takidlash lozimki, kitoblar, asari – atiqalar savdosi ajnabiy xaridorlar uchungina emas, birinchi navbatda mamlakat fuqarolari ehtiyojlari natijasida paydo bo‘lgan, kengayib borgan. Buxoro adabiyot,musisia, va ashula sa’nat tarixnavislik, zargarlik buyumlarini yasash ularni tolyish madaniyati yuqori darajada ko‘tarilgan edi. Ma’rifatchi va tarixnavis Ahmad Donish (1827-1897) shoirlar SHohin (1895-1894) Hayrat (1878-1902) xalq ommasi ongida o‘chmas iz qoldirganlar. Ahmad Donishning “Navodirul - vaqog” hamda “Buxoro amirlarining tarjimai hollari” asarlari, SHohin Hayrat va boshqa shoirlarning she’rlar va qasidalari mamlakat ichidagina emas O‘rta Osiyoning ko‘p erlarida mashhur bo‘lgan va sevib o‘qilgan. Mirzo Some’ning “Mong‘in amirlari tarixi”ni yozish, Abdurauf Fitrat (1886-1937) S.Ayniy (1878-1954) va boshqalarning ijodiy va ma’rifatchilik faoliyatları XX asr boshiga to‘g‘ri keldi mamlakat hayotida jumladan ma’naviy – ilmiy hayotida va amirning tashqi dunyo bilan munosabatlarida islom dinining tutgan o‘rni an’anaviy ta’sirchan

va keng qo'llashli bo'lgan. Musulmon dunyosida, ayniqsa O'rta Osiyoda Buxoro Islom dini ta'limotining eng rivojlangan markazi sifatida katta obro' qozongan. Turkiya sahifalari bilan bir qatorda Buxoro amirlari musulmon dunyosining hukumronlari sanalgan.¹ Mamlakatning ichki hayotida musulmon dini uning aksar namoyondalari g'oyaviy – tarbiyaviy va ma'rifiy faoliyatini amalga oshirganlar.

XIX asr oxiri – XX asr boshidagi Buxoro mamlakatidagi boy va sermazmun ma'naviy va madaniy hayot ayni zamonda bir joyda to'xtab qolgan hodisa emas edi. Xalq ommasi, uning iste'dodli namoyondalari faoliyati tel ellardan kirib kelgan yangiliklar mamlakatdagi turmush tarzining qator sohalariga ijobiy ta'sir ko'rsatib uning darajasi ko'tarilib borishini ta'minlaydi, rivojlanish zaminini kengaytiradi. Qo'l yozma va qo'lda ko'chirilgan kitoblar chiqarish bilan birga bosma chop etish bo'yicha qo'yildi va kengayib bordi. Mamlakatda muntazam turli xil kitoblar chiqarildi, kitoblar savdosi yangi asosda kengayib bordi. Masalan, 1909 yilda Litografiya usulida Buxoroda Quyuuddin Roziyoning "Mustasar Falsafa" risolasi. 1910 yilda Mirzo Siroj Hokimning "Buxoro ahliga tuhfa" risolasi, Kogonda shu yili mamlakatning Muhammad Ikrom Ibn Abdu Samoi (1917-1925) ning "Tunda va o'ngda uchishlar" risolasi nashr qilindi. 1912-1913 yilda "Buxoroi SHarif" gazetasi nashr qilingan.

Bu davrda madrasalarda fanlar bo'yicha mutoaala va munozaralarda yangi hayot taqazosi bilan kelib chiqqan g'oyalar ilgari surilib, dolzarb masalalar o'rtaga tashlangan diniy, falsafiy va ilmiy masalalar davrasi kengayib borib, ularda oliy amaldorlar ham ishtirok eta boshlaganlar. Ijtimoiy hayot muammolariga yaqin turish, ularning ba'zilarini echishga qatnashish hollari amir amaldorlar kengayib borgan savdogar sarmoyadorlar tomorasi sa'iy – harakatlarida ham ko'rinar edi. Mufti domla Ikrom, SHarifjon Maxdum, Mudarris Hoji Rafiy, qozilar Abdusamad Saidjon, Zarifjon

¹ Бухоро тарихи сахифалари. Бухоро 1999 йил 203-бет.

amaldorlar va boshqa kasb egalar mamlakat fuqarolari daqdiri kelajagi to‘g‘risida mushohadalar qilib ilg‘or fikr – g‘oyalarni ilgari surganlar. Madrasalar talabalarning ijtimoiy hayot masalalarigat qiziqishlari, unda o‘z o‘rinlarini topishga intilishlari bergan sari ko‘proq ko‘zga tashlanardi. A. Fitrat, S.Ayniy, Ahmadjon Hamd, (Abdusaidov) F.Xo‘jaev, M.Saidjonov, Xo‘ja Mehriy qator boshqalar madrasa taqalish davrida ijtimoiy ma’rifatchilik faoliyatini boshlab bu yilga sodiq bo‘lganlar. SHoirlar tarixnavislar boshqa ijod ahli faoliyatida an’anaviy yo‘nalishlarining davom etishi bilan birga yangi mazmun, yangi ko‘rinishlar namoyon bo‘la boshladи.¹ M: Ahmad Donish, Mirzo Samiy an’ana bo‘lib kelgan mang‘it amirlari sulolasining tarixini yozish bilan dir qatorda o‘z asarlarida bo‘rtirishlar, hamdusanolar salmog‘ini kamaytirib zamonaning ba’zi achchiq haqiqatlariga ham murojat qilganlar, davlat osoyishtaligi va xalq hayotining farovonligini ta’minlash yo‘llarini idrok etganlar. Somiy Rossiyadagi 1905 yil voqealarini beboshlik deb ta’riflab ular Buxoroning olib borgan tijorat ishlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.² Buxorodagi rus – tuzem maktabida uqituvchining 1904 yildagi maoshi 800 oylik maoshi 66 so‘nni tashkil qilgan.

Buxoroda bu davrda yuqorida aytib o‘tilganidek siyosiy – ijtimoiy harakatlar yuzaga keldi. Buning asosiy sababchisi iqtisodiy tanglik, xalqning og‘ir ahvoli edi. Amirlikdagi bunday holat Buxoroning ilg‘or ziyorolarining chor mustamlakachilariga va amir hukumatiga qarshi kayfiyatini vujudga keltirdi. Ular o‘zlarini jadidlar jadid – arabcha “yangi” demakdir deb atadilar. Buxoro, Xorazm va Turkistonda jadidchilik harakati – milliy mustaqillik harakati sifatida 1900 yillardan boshlab shakllandı. Jadidchilik harakati oddiy talablar bilan boshlanib keyinchalik mavjud tuzumni tanqid qilish. Islohotlar o‘tkazish va O‘rta Osiyoning to‘liq mustaqiligi uchun kurash olib bordi. Buxoroda jadidchilik harakati tarixini uch davrga bo‘lish mumkin.

¹ Бухоро тарихи сахифалари. Бухоро 1999 йил 58-59 бетлар.

² Мирзо Абдулазим Сомий Тарихи Салтанати манғития М. 1962 г 122 б.

Birinchi davr: jadidchilik harakati paydo bo‘lishida XIX asr oxirlari to 1917 yil aprelgacha, ya’ni jadidchilik harakatining terorga uchrashi va jadidlarning Kogonga o‘tib “YOsh buxoroliklar” partiyasini tuzganigacha bo‘lgan davr.

Ikkinci davri ancha qisqa bo‘lib, 1917 yil apreldan to 1918 yil mart ya’ni Kolesov yurishigacha bo‘lgan davr.

Uchinchi davri jadidchilikning amirlik hududidan tashqaridagi faoliyati, ya’ni 1918 yil martidan to 1920 yil Buxoro amirligining tugatilishigacha bo‘lgan davrini o‘z ichiga oladi.¹ Dastlab Buxorodagi jadidchilik harakatiga mudaris va tarixchi olim Marjoniy (1818-1889) G‘ijduvonlik domla Fozil, Mo‘minxo‘ja Vopkandli mulla Xudoyberdi Baysuniylar rahbarlik qildilar. Ammo bu qadimiylar bu talab va istaklarga qarshi kurashib Marjoniyni mamlakatdan chetlashtirdilar. U Qozonga borib o‘z faoliyatini davom ettirdi.² Umuman Buxoroda jadidchilik harakati 1910 yildan boshlab tashkil jihatdan to‘liq shakllanib, milliy demokratik tashkilot tusini oldi. Maskur harakatning namoyondalari: madrasa talabasi Sadriddin Ayniy kichik amaldor Abduvohid Burhonov, savdogarning o‘g‘li Usmon Xo‘jaevlar edilar. 1910 yilda Buxoroda jadidlarning “Tarbiya - atvol” degan yashirin tashkiloti tuzildi. Bu jamiyat yashirin ish olib borib o‘zining 28 ta yangi tashkilotidan iborat bo‘lib ular asosan Termiz, Qarshi, Eski Buxoro /Kogon/ va G‘ijduvon shaharlarida tashkil topdi, shundan boshlab jadidlar o‘zlarini “YOsh buxoroliklar” deb atashgan. Buxoro jadidlarining rahbarlari. Maorif sohasidagi islohotlar dasturini ishlab chiqib quyidagi 6 ta asosiy masalaga diqqatni qaratishni talab qilgan edilar:

1. Qur’ondagi har qanday diniy masalani kishilar tushungan holda o‘zları erkin fikr yuritsinlar.
2. Birovning birovga ko‘r – ko‘rona ergashish qit’iyan man etilsin.

¹ Рашидов У. Бухоро Халқ Республикаси. 2003 йил. 13-14 бетлар. Бухоро.

² Рашидов У. Бухоро Халқ Республикаси. 2003 йил. 13-17 бетлар.

3. Madrasalarda hoshiya va sharq kabi quruq mazmunga ega bo‘lgan va madrasa o‘quvchilari uchun foydasiz bo‘lgan darslar jadvaldan chiqarib tashlangan!

4. Madarsalarda Qur’oni – karim, hadisi sharif va islom tarixi kabi darslar o‘qitilsin.

5. Arifmetika, tarix, jo‘g‘rofiya, tabobat, mantiq, falsafa av boshqa dunyoviy fanlarni o‘qitishag qarshilik qilinmasin.

6. Musulmonchilikni Muhammad davridagi qadimgi islom madaniyatiga qaytarish ya’ni islomni mashablarga bo‘linib ketishini oldini olish turardi.

1.2. 1920-1924 yillar BXSR hukumati davrida faoliyat yuritgan ilmiy – tarixiy muassasalar

XIX asrning ikkinchi yarmida O‘rta Osiyo hududidagi eng yirik davlatlardan biri - Buxoro amirligi Rossiya imperiyasining yarim mustamlakasi bo‘lib, tashqi aloqlarda qaram, ichki masalalarda esa bir qadar mustaqil edi. Biroq amirlikdagi boshqaruv 1885 yildan Rossiya imperiyasining Buxorodagi siyosiy agentligi tomonidan qat’iy nazorat qilingan. Mamlakat iqtisodiy jihatdan qoloq bo‘lib, aholining asosiy mashg‘uloti sun’iy sug‘orish bilan uzviy bog‘langan dehqonchilikdan iborat edi. 1920 yil arafasida amirlikda ekin ekiladigan erlar maydoni 2 mln. 250 ming desyatina bo‘lib, 2,5 millionli aholining 90 foizi dehqonlardan iborat bo‘lgan⁵. Uzoq asrlardan buyon amirlikda erga egalik qilishning “amlok” (davlat erlari), “mulki xos” yoki “mulki xolis” (xususiy erlar) hamda “mulki vaqf” (maschit, madrasa, xonaqolarga tegishli erlar) kabi shakllari mavjud bo‘lib kelayotgan edi. Garchi mulklar davlat, xususiy va vaqflarga ajratilgan bo‘lsada, biroq soliq tizimi

⁵ Ўша жойда. 7-8.

bo‘yicha xirojiy (33%), ushriy (10%) hamda xirojiy vaqf va ushriy vaqf erlariga bo‘lingan. Davlat erlarida ijrarachi dehqonlar mehnat qilib, ular etishtirgan mahsulotlari yuzasidan natura, qisman pul ko‘rinishida soliqlar to‘lar edilar. Vaqf erlaridan kelgan daromad maorif tizimini mablag‘ bilan ta’minalashning asosiy manbai hisoblanardi. SHuningdek, hamma soliq, to‘lov va jamoat ishlaridan ozod etilgan erlar - “mulki xurri xolis” yoki “daru bast” (ya’ni, soliqchilar uchun bunday erlarning eshiklari yopiq) deb yuritilgan.

Mamlakatda tabaqachilik tartibi amal qilib, amir, uning amaldor va a’yonlari yuqori tabaqa vakillari hisoblanib keng imtiyozga ega edilar. Davlatni boshqarish ishida ruhoniylarning ta’siri kuchli bo‘lib, huquq-tartibot ishlari islom huquqi asosida amalga oshirilardi. Ruhoniylardan so‘ng boy savdogarlarning mavqeい jamiyatda ta’sirchan kuchga ega bo‘lib, iqtisodiy jihatdan qudratli tijoratchilar salmog‘i anchagina edi. SHahar aholisining asosiy mashg‘uloti savdo-sotiq va hunarmandchilikdan iborat bo‘lgan. Ko‘p sonli qishloq aholisining asosiy tirikchilik manbai dehqonchilik xo‘jaligi bilan bog‘liq bo‘lgan. Dehqonchilikning sun’iy sug‘orishga asoslangan tarmog‘i bilan birga tog‘ va tog‘oldi hududlarida lalmikor dehqonchilik bilan ham shug‘ullanilgan. Bog‘dorchilik, uzumchilik, sabzavot etishtirish yarim mustamlaka yillarida sezilarli darajada qisqargan. Buning sababi dehqonchilikning paxtachilik tarmog‘iga Rossiya imperiyasining mustamlakasi yillarida alohida e’tibor qaratilib, g‘o‘za ekishga erlarning katta qismi ajratildi. Paxtadan olinadigan foyda barcha mahsulotlar daromadidan ustun bo‘lib, amirlik tobora Rossiyaning xom ashyo bazasiga aylanib borayotgan edi. 1893 yildan 1917 yilga qadar Buxoroda paxta ekiladigan erlar miqdori 300 000 tanobgacha bo‘lib, undan olinadigan daromad 25 mln. oltin so‘mni tashkil etgan⁶. Paxtachilik bilan birga chorvachilik, ayniqsa, qorako‘lchilik, ipak va jun mahsulotlarini ishlab chiqarish sohalari yildan-yilga nisbatan o‘sib borgan. Buxoro amirligidan Rossiyaga mustamlaka davrining dastlabki yillarida 30

⁶ Бухоро ахбори. 108-сон. 1922 йил 5 ноябр.

000-40 000 dona qorako‘l teri chiqarilgan bo‘lsa, 1914 yilga kelib bu nisbat 1.800 000 donani tashkil qildi. Paxta va qorako‘l terining 80 foizi Rossiyaga eksport qilinar edi.

Rossiyada 1917 yildagi fevral inqilobi va Oktyabr to‘ntarishidan so‘ng garchand Buxoro amirligining mustaqilligi Muvaqqat hukumat va sovet hokimiyati tomonidan tan olingan bo‘lsa-da, lekin uning hududi, chegaralari sovet Rossiysi ixtiyorida bo‘lib, Buxoro tashqi dunyodan ajralib qolgan edi. Amirlikdagi 26 ta paxta tozalash, 4 ta yog‘, 10 tasovun zavodlari ishlab chiqargan mahsulotlar, qorako‘l teri va boshqa mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan tovarlar chetga chiqarilmay omborlarda to‘planib qolaverdi. Oqibatda 1919 yilga kelib chetga paxta chiqarish 20 marta, qorako‘l teri sotish 10 marta qisqardi. Qishloq xo‘jalik mahsulotlari narxi pasayib ketdi. 1917 yil 1 pud paxta 11 so‘m baholangan bo‘lsa, 1919 yilga kelib 2 so‘mu 80 tiyinga tushdi. 1 pud jun 6 so‘mdan 2 so‘mga, 1 dona qorako‘l teri 7 so‘mdan 1 so‘m 20 tiyinga tushib ketdi⁷.

Mamlakatdagi iqtisodiy tanglik siyosiy inqirozni ham chuqurlashtirdi. Rossiyaning markaziy rayonlarida ro‘y bergan keskin siyosiy o‘zgarishlar, demokratiya va erkinlik uchun kurash o‘rta asr an’analari asosidagi boshqaruvni saqlab kelayotgan Buxoro amirligiga o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Amirlikdagi taraqqiyat parvar kuchlar mavjud tartiblarni isloh qilish, mamlakatda konstitutsion monarxiya tuzumini joriy qilish talabi bilan chiqa boshladilar. Buxorodagi jadidchilik harakati etakchi vakillari Amir Sayyid Olimxon dan islohot o‘tkazishni qat’iy talab qilishdi. 1917 yil 7 aprelda Buxoro amirining islohotlar joriy etish bo‘yicha manifesti (farmoni) e’lon qilindi⁸. Manifestda poytaxt Buxoroda obro‘li arboblardan iborat mahkamani tuzish, amaldorlar, ularning daromadlari ustidan nazorat o‘rnatish, soliq tizimini tartibga solish,

⁷ Қосимов Ф., Рашидов У. Бухоро амирлигининг тугатилиши /Бухоро тарихи масалалари. -Бухоро. 1996. -Б. 69-70.

⁸ Ўзбекистон тарихи солномаси /Тузувчи муаллифлар: Ражабов К, Ҳасанов Ф. -Т.: Ўзбекистон миллый энциклопедияси, 2007. -Б. 91.

davlat byudjetini joriy qilish, sanoat, tijorat, ma'rifatni rivojlantirish uchun chora-tadbirlar ko'riliши va'da qilindi⁹. Buxoro jadidlarining so'l qanoti a'zolari amir manifestini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan namoyish tashkil qildilar. 1917 yil 8 aprelda jadidlarning "YAshasin islohot!", "YAshasin amir!" shiorlari ostida Buxoro va Karkida o'tkazgan namoyishlari o'qqa tutildi. Buxorodagi namoyishda qonli to'qnashuvlar tufayli 30 nafar YOsh buxoroliklar tashkiloti a'zolari qamoqqa olinib, ko'plarning hayoti havf ostida qoldi¹⁰. Amirlikda mutaassiblik avjiga chiqdi, jazolanishdan saqlanish uchun omon qolgan YOsh buxoroliklar Toshkent, Samarqand va YAngi Buxoro (Kogon)ga ommaviy ravishda muhojir bo'lib keta boshladilar.

Buxoro amirligidagi siyosiy jarayonlarning keskinlashuvi 1918 yilning mart oyida "Kolesov voqeasi" nomi bilan tarixga kirgan voqealarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Turkistonda sovet hokimiyati o'rnatilishdan 3-4 oy o'tmasdanoq Turkiston XKS raisi F.Kolesov (1891-1940) 1918 yil mart oyida YAngi Buxoro (Kogon)ga kelib, Eski Buxoro (hozirgi Buxoro shahri)ga hujumga o'tdi. Biroq uning amirlik tartiblarini ag'darish bilan bog'liq maqsadi va harbiy harakati muvaffaqiyatsizlik bilan yakunlandi. F.Kolesovning amirlikka qarshi harbiy yurishida 10 000 kishi halok bo'ldi. Kogonni Termiz, Kitob bilan bog'lab turuvchi temir yo'llar buzib tashlandi. 1918 yil 25 martda imzolangan Qiziltepa bitimiga ko'ra, F.Kolesovning tajovuzkorligi sharmandalarcha barbod bo'ldi.

"Kolesov voqeasi"dan so'ng Buxoro amirligida taraqqiyparvar kuchlarga nisbatan siyosiy reaksiya yangidan avj oldirildi. Muhojirlikda yashashga majbur bo'lgan jadidlar Samarqand, Toshkent, Moskva va boshqa shaharlarda turib tashviqot va targ'ibot ishlarini olib borishga majbur bo'ldilar. Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jaev va boshqalar bu harakatda faol qatnashdilar.

⁹Алимова Д. ва б. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Т.: Шарқ, 2000. -Б. 44-45; Нуруллин Р. Хива хонлиги ва Бухоро амирлигининг қизил армия томонидан тугатилиши. XXCP ва БХСРнинг ташкил топиши //Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. -Т.: Шарқ, 2000. -Б. 114.

¹⁰Хайитов Ш. Усмон Хўжа Пўлатхўжаев - миллий истиқлол курашчиси. -Бухоро, 2007. -Б. 22.

“Kolesov voqeasi”dan keyin Toshkentda yashagan Fitrat “CHig‘atoy gurungi” adabiy-ma’rifiy tashkilotiga asos soldi. F.Xo‘jaev esa YOsh buxoroliklar g‘oyalari ruhidagi dasturiy hujjat-maromnomani tuzdi va nashr etdi, “Uchqun” gazetasining chiqishini tashkil qildi.

1918-1920 yillardagi Buxoro amirligida va uning atrofida keskin kechgan siyosiy voqealar ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning mo‘tadil tizimini o‘zgartirib yubordi. Buxoro amirligi bilan Turkiston ASSR o‘rtasidagi savdo aloqalari deyarli to‘xtab qoldi. Rossiya yarmarkalarida Buxoro mollari sotilmay qolib ketdi. Ta’kidlangan davrda Buxoro amirligi bilan Angliya o‘rtasidagi o‘zaro savdo-sotiq aloqalari bir qadar jonlanganligini hisobga olmasa, amirlikning tashqi savdosi to‘xtab qolgan edi. Buxoro amirining sovet Rossiyasi bilan muzokaralari boshi berk ko‘chaga kirib qoldi. Amir va sovet hukumati o‘rtasidagi o‘zaro elchilik almashuvlari, sovet hokimiyatining amirlikka harbiy yordam berish bilan bog‘liq ikkiyoqlama muzokaralari amaliy natija bermadi. Sovet hokimiyati tomonidan Buxoro amirligiga qarshi siyosiy tazyiq va harbiy havf kuchayib bordi. Bu haqda Amir Sayyid Olimxon o‘zesdaliklarida yozgan edi: “Ular (bolsheviklar) Buxoro davlatiga g‘ayriqonuniy talablar qo‘yib, ularning ijro etilishini talab qiladigan bo‘lishdi, ular qanday bo‘lmisin, bir amallab urush boshlashni o‘zlariga hunar qilib olishdi... Islom davlatining bu dushmanlari anchagina askar va qurol-yarog‘lar to‘plab, Buxoroyi sharifga hujum qilishni istaydilar”¹¹.

Buxoro amirligini tugatish masalasida sovet hukumati rahbari Lenin tomonidan Turkiston mintaqasiga yuborilgan Turkbyuro vakillari hamda bolshevik rahbarlar “Markaz” bilan yagona fikrga keldilar. Amirlikka qarshi harbiy harakatlarni boshqarish vazifasi Turkiston fronti qo‘mondoni Mixail Vasilevich Frunzening shaxsan zimmasiga yuklatildi. Frunze 1920 yil 12 avgustda amirlikni tugatish maqsadida CHorjo‘y, Kogon, Kattaqo‘rg‘on va Samarqand guruhlaridan iborat 4 guruhli harbiy qismlarni tuzdi. Qizil qo‘shin

¹¹ Амир Сайид Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. -Т.: Фан, 1991. -Б. 13-14.

yagona Samarqand-Buxoro gruppasiga bo‘ysindirilib, ular tarkibi 7000 piyoda, 2,5 ming otliq, 5ta og‘ir artilleriya, 25 ta engil to‘p, 5 ta broneavtomobil, 220 ta zambarak, 5 ta bronepoezd va 11 ta aeroplandan iborat edi. Bu davrda amir armiyasida 16 000 sarboz, 55 ta eskirgan to‘p va 12 ta pulemyot bo‘lgan, xolos. Buxoro sarbozlari soni ko‘pchilikni tashkil etsa-da, lekin zamonaviy quronish jihatidan bolsheviklar ustunlik qilardi¹².

Buxoro amirligiga qarshi harbiy harakatlar 1920 yil 23 avgustda CHorjo‘yda Beshim Sardor boshchiligidagi turkman yollangan otliqlarining “yangi qo‘zg‘olon”idan boshlandi. O‘sha kuni CHorjo‘y revkomi tuzilib, beklik xazinasi qo‘lga kiritildi, bek va uning amaldorlari asir olindi. Hokimiyat inqilobiy qo‘mita (revkom) qo‘liga o‘tdi¹³. 1920 yil 25 avgustda CHorjo‘y revkomining murojaatini olgan qo‘mondon Frunze o‘zining 36-67 raqamli maxfiy buyrug‘ini e’lon qildi. Unda Samarqand - Buxoro guruhi 1920 yil 28 avgustida harbiy tayyorgarlikni tugatishi, Eski Buxoroni egallashi qayd qilingan edi. 1920 yil 29 avgust Samarqand guruhi 3-Turkiston o‘qchi polki, 1-Turkiston otliq diviziya, alohida Turkiston otliq brigadasi, injenerlar rotasi yordamida Buxoro shahriga hujum qildi. 1920 yilning 29 avgustidan 2 sentyabriga qadar havodan va piyoda qo‘shinlarining hujumlari oqibatida Buxoroda monarxiyaga qarshi “xalq inqilobi” amalga oshiriladi. SHaharni 3 kun davomida 11 ta aeroplan bombardimon qildi. Buxoro shahri katta moddiy zarar ko‘rdi, begunoh kishilarning qoni to‘kildi. Amir qarorgohi-Ark, Buxoro atrofidagi qishloqlar, amirning yozgi saroyi - Sitorai Mohi Xosa ham yarim vayrona holatiga keltirildi.¹⁴

Buxoro amirligi xazinasi, ko‘pgina xonadonlarning buyum va mablag‘lari, oziq-ovqat zahiralari ayovsiz talandi va Turkiston fronti qo‘mondonligi hisobiga o‘tkazildi. Bulardan tashqari paxta zahiralari, jun,

¹² Қосимов Ф., Рашидов У. Бухоро амирлигининг тугатилиши /Бухоро тарихи масалалари. -Бухоро, 1996. -Б.77.

¹³ Ишанов А. Бухарская Народная Советская Республика. -Т., 1969. -С. 187.

¹⁴ Ражабов К. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. -Т.: Маънавият, 2002. -Б. 12; Рашидов У. Бухоро Халқ Республикаси. -Бухоро, 2003. -Б. 33.

ipak, qorako'l teri, quritilgan mevalar ham musodara qilindi¹⁵. 1920 yil sentyabrda amir Buxoro shahrini tark etayotganda poytaxtda o'z haramini qoldirib ketishga majbur bo'lgan edi. Uning butun oila a'zolari va qarindoshurug'laridan iborat harami (arxiv hujjatlarida ularning umumiy miqdori 118 kishi deb nomma-nom ko'rsatilgan) qo'lga olinib, Buxoroda uy qamog'ida saqlanadi¹⁶.

Buxoro amiri Sayyid Olimxon kuchlar teng bo'limgan janglarda engilib, shaharni tashlab chiqib ketishga majbur bo'ldi. O'z jonini zo'rg'a saqlab qolgan amir oz sonli amaldor va a'yonlari bilan SHarqiy Buxoroga (hozirgi Tojikiston va Janubiy O'zbekiston) chekindi. Uning SHarqiy Buxoro hududida bolsheviklarga qarshilik ko'rsatish harakati 1921 yilning bahoriga qadar davom etib, shu yilning mart oyida Afg'onistonga o'tib ketdi.

1920 yil 14 sentyabrda bo'lgan Xalq Nozirlar SHo'rosi, revkom va BKP MKning umumiy yig'ilishida 9 kishidan iborat Butun Buxoro inqilobiy qo'mitasi (raisi Abdulqodir Muhiddinov) va respublika hukumati - 11 kishidan iborat Xalq Nozirlar SHo'rosi (raisi Fayzulla Xo'jaev) tuzildi. Buxoro inqilobiy qo'mitasining a'zolari qilib Muinjon Aminov, Olimjon Akchurin, Abdulhamid Oripov, Sobir YUsupov, Hoji Hasan Ibrohimov, Fayzulla Xo'jaev, Qulmuhamedov tayinlandi. Mamlakatni boshqarish maqsadida tuzilgan Buxoro Xalq Nozirlar SHo'rosi tarkibi quyidagicha edi: rais va xorijiy-tashqi ishlar (nozir-F.Xo'jaev), maorif (Qori Yo'Idosh Po'latov), ichki (doxiliya) ishlar (M.Saidjonov), moliya (U.Po'latxo'jaev), davlat nazorati (N.Husainov), favqulodda komissiya (raisi-Ibrohimov), adliya (M.Burhonov), harbiy (SHihobuddinov), savdo-sanoat (M.Mansurov) nozirliklari¹⁷.

1920 yil 6-8 oktyabrda chaqirilgan Butun Buxoro xalq vakillarining 1-qurultoyida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi - BXSR tuzilganligi tantanali

¹⁵ Холбоев С. Бухоро амирлигининг олтин хазинаси. -Т.: Фан, 2008. - Б. 31.

¹⁶ Ўзбекистон МДА, 47-фонд, 1-рўйхат, 425-иш, 278-варақ.

¹⁷ Ражабов К. Бухоро Халқ Республикаси: монархиядан демократия сари дастлабки қадамлар (1920-1924 йиллар) /Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммоларига янги чизгилар. Даврий тўплам. № 2. -Т.: Шарқ, 1999. -Б. 151; Шу муаллиф. Бухоро Халқ Совет Республикаси /ЎзМЭ. Ж.2. -Т., 2001. -Б. 300.

ravishda e'lon qilindi. Mazkur tadbir amirning yozgi saroyi - Sitorai Mohi Xosada bo'lib o'tdi. BXSR hukumati zimmasiga qisqa muddat ichida o'rta asrchilik an'analari meros qolgan amir Buxorosini demokratik davlatga aylantirishdek tarixiy vazifani bajarish tushdi. Qurultoy qonun chiqaruvchi oliy organ - Buxoro inqilobiy qo'mitasi (markaziy revkom) va Buxoro Xalq Nozirlar SHo'rosi (XNSH) - dastlabki hukumat tarkibini uzil-kesil tasdiqladi. Ularning vakolat muddati 2-qurultoygacha uzaytirildi. YOsh hukumat etakchisi F.Xo'jaev murakkab va og'ir sharoitda ishlashga majbur bo'ldi. Buxoro hukumati ichida siyosiy bo'linish kuchaydi. Bir tarafdan Buxoro Kommunistik partiyasi ichidagi "so'l" va "o'ng" kommunistlarga qarshi g'oyaviy jihatdan kurash olib borishga to'g'ri kelsa, ikkinchi tarafdan, RSFSR va uning favqulodda organlari bo'lgan Turkkomissiya, Turkbyuro yosh "mustaqil davlat"ning bosgan har bir qadamini sergaklik bilan nazorat qilib turar edi. SHunday bo'lishiga qaramasdan F.Xo'jaev, U.Po'latxo'jaev, O.Xo'jaev, A.Fitrat, M.Aminov, M.Saidjonov, S.Xo'jaev, M.Mansurov, A.Muhiddinov va boshqalar hukumatda demokratik yo'l tutib, mo'tadil mavqeda turdilar. Ular BXSRning amalda mustaqil bo'lishi, e'tiqod erkinligi, islohotlar o'tkazish zarurligini yoqlab chiqdilar.

1921 yil 18-23 sentyabrda bo'lgan Butun Buxoro xalq vakillarining 2-qurultoyida demokratik ruhdagi BXSR Konstitutsiyasi qabul qilindi. Buxoro tarixidagi dastlabki Konstitutsiya fuqarolarning demokratik huquq va erkinliklarini qonun yo'li bilan mustahkamladi. Konstitutsiyada davlatni idora etish uchun xalqning barcha tabaqa vakillarining ishtiroki ta'minlandi. Xususiy mulk va savdo-sotiq erkinliklari Konstitutsiyada o'z ifodasini topdi. Buxoroda o'rnatilgan tuzum xalq demokratik respublikasi edi. BXSRning Konstitutsiyasi barcha fuqarolarga teng siyosiy huquq berdi, milliy tengsizlikni yo'qotdi. Xalq vakillarining 2-qurultoyida hokimiyatning oliy organi – Buxoro Markaziy Ijroiya komiteti (MIK) tuzildi. Uning birinchi raisi qilib Usmonxo'ja

Po'latxo'jaev (Usmon Xo'ja, 1878-1968) saylandi. Keyinchalik Muinjon Aminov, Porso Xo'jaev MIK raisi bo'ldilar¹⁸.

BXSR yillarida amirlik davrida mavjud bo'lgan mamlakat ma'muriy bo'linishidagi 27 ta bekliklar tartibi o'rniga viloyatlar, tumanlar, kentlar, qishloqlar singari ma'muriy boshqaruv tartibi joriy qilindi. "Ozod Buxoro" gazetasining 1923 yil noyabr oyida nashr etilgan sonlaridan birida qayd etilishicha, BXSR 10 ta viloyat, 41 tuman, 132 kentga bo'linib, viloyatlardagi aholi soni quyidagicha edi:

Buxoro viloyati - 420 000 kishi;

Karmana viloyati - 180 000 kishi;

Behbudi (avvalgi Qarshi) viloyati - 220 000 kishi;

Karki viloyati - 160 000 kishi;

CHorjo'y viloyati - 250 000 kishi;

SHahrisabz viloyati - 250 000 kishi;

SHerobod viloyati - 220 000 kishi;

Hisor viloyati - 140 000 kishi;

Ko'lob viloyati - 140 000 kishi;

G'arm viloyati - 80 000 kishi¹⁹.

Buxoro hududidagi qizil armiya harbiy qismlari va sovet tartiblariga nisbatan 1920 yil kuzidan boshlab BXSRda qurolli qarshilik ko'rsatish harakati boshlanib ketdi. Bu harakat hukumat mavjud bo'lgan 4 yildan ortiq davrda goh kuchayib, goh pasayib davom etib turdi. Sovet rejimiga qarshi qurolli kurashlarda Ibrohimbek Laqay (1889-1932), Davlatmandbek, Fuzayl Maxdum, Mulla Abdulqahhor(1884-1924) kabi yirik qo'rboshilar va turkiyalik harbiy sarkarda Anvar poshsho (1881-1922) muhim rol o'ynaydilar²⁰.

¹⁸ Alimova D. va boshq. Ozbekiston tarixi (1917-1991 yillar): 10-sinf oquvchilari uchun darslik. –T.: Sharq, 2004. -B. 97.

¹⁹ Бухоро Жумхуриятида қанча халқ бор? //Озод Бухоро. 14-сон. 1923 йил 21 ноябр; Қаранг. Ҳайитов Ш., Раҳмонов К. Бухоро Халқ Республикаси ва Германия: ҳамкорликнинг тарихий лавҳалари (1920-1924 йиллар). -Т.: Фан, 2004. -Б. 7.

²⁰ Ражабов Қ. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. Т.: Маънавият, 2002. -Б. 35-37.

BXSR rahbariyati dastlabki yillarda (1920-1922 y) mustaqil ichki va tashqi siyosat yuritishga harakat qildi. Bir qator xorijiy mamlakatlarda BXSRning vakolatxonalarini bu davrda mustaqil faoliyat yuritdi.²¹ Mamlakat iqtisodiy, ijtimoiy hayotini o'nglashga qaratilgan chora-tadbirlar ko'rildi. Biroq BXSR hukumati manfaatlari Markazga bo'ysundirilishi va tazyiq o'tkazilishi oqibatida xorijdagi vakolatxonalar RSFSR elchixonalari tarkibiga kiritib yuborildi va respublika mustaqil ichki va tashqi siyosat yuritish huquqidan mahrum bo'lib bordi.

O'rta Osiyoda o'tkazilgan milliy - hududiy chegaralanish tadbirlarining amalga oshirilishi tufayli Turkiston ASSR va XXSR singari BXSR ham 1924 yil oxirlariga kelib tugatildi.

YOsh respublikada sovet madaniyati va faning dastlabki qadamlari siyosiy – ijtimoiy hayot o'rtaga bo'lган ilmiy muammoni o'rganish bilan bog'liq bo'ldi. Buxoro Respublikasi Muvvaqqat Inqilobiy kommiteti 14- son buyruq chiqarib, Maorif nozirligi oldida quyidagicha masalani qo'ydi. Unda "Markaziy arxiv hay'atini tuzish to'g'risidagi masalani ilgari so'rdi. 1920 yil 11 noyabrda BXSHJ maorif nozirligi" "Buxoroda inqilob"ni yozish va nashr etish uchun maxsus komissiyasi tuzish haqida qaror qabul qildi. Komissiya tarkibiga bo'lajak taniqli tarixchilar Po'lat Saliev, Sadriddin Ayniy, Muso Saldjonov va boshqalar kiritildi. Buxoro Xalq SHO'rolar jumhuriyati tarixiga old dastlabki ishlar gazeta maqolalari bo'lib, ular respublika mansub "Buxoro axbori" gazetasi o'zining birinchi sonida mahalliy inqilobchilar sardori Fayzulla Xo'jaevning "Kun tug'di" maqolasini bosib chiqardi.¹ Xalq baxti uchun otashin kurashchining sho'ro davridagi ilmiy – publitsistik merosining debochasi hisoblangan ushbu maqola amirlikdagi to'qnashuvlar manzarasini.

²¹ Ҳайитов Ш. ва б. Бухоро Халқ Совет Республикаси: иқтисодиёт, ижтимоий сиёсат, маданий ҳаёт. - Бухоро: Бухоро, 2005. -Б. 60.

¹ Қосимов Ф. "Бухоро Республикаси Тарихшунослиги." Бухоро. 1996 йил. 10-11 бет.

Buxoroning sho‘ro tuzumiga o‘tishi murakkab yo‘lni qisqa, lekin ishonarli bergen.

Buxoroda demokratik harakatning mashhur namoyondasi Sadriddin Ayniyning ilmiy – publitsistik faoliyati avj oladi. U Samarqandda tojik tilida chiqqayotgan “SHo“nam inqilob” jurnali hamda “Mehnatkashlar tovushi” gazetasi sahifalarida. Buxoro respublikasining birinchi hafta va atlaridagi ijtimoiy hayotim yoritadigan qator xatlar e’lon qilindi. 1920 yilning sentyabrda “Mehnatkashlar tovushi” gazetasi “Buxorodan bir kishi” imzosi bilan Sadriddin Ayniyning Buxoro inqilobi tarixaga old kattagina ilmiy ishini boshladi. Bu o‘zbek tilida yozilayotgan “Buxoro inqilobi tarixi” edi. Uning tayyor qismlari gazetada “Uchqun” jurnalida e’lon qilinayotgan edi. To‘liq holda bu kitob Moskvada 1926 yilda o‘zbek tilida nashr qilindi. Uning asosiy mazmunini Buxorodagi 1908 – 1920 yillardagi demokratik harakat, jadidlar faoliyati tashkil qiladi. Yangi tuzilgan respublika va uning oldidagi vazifalar haqida yozilgan dastlabki ishlardan biri V.YUdoviskiy maqolasidir. Muallif Buxorodagi siyosiy to‘ntarishga katta boho berib, yosh davlat istiqbollari haqida fikr yuritadi. Buxoro respublikasining tarixshunosligida A.Mashiykiyning ishlari alohida o‘rin egallaydi.²

Inqilobiy voqealar tugagach A.Mashiykiy muhim hujjatlar asosida sentyabr to‘ntarishining siyosiy shart – sharoitlarini aniqlashga harakat qildi. Buxoro Xalq SHo‘rolari jumquriyati davrida uning tarixiga bag‘ishlab yozishgan adabiyotlarini shartli ravishda ikki guruhga bo‘lish mumkin. Buxoroda shu davrga kelib turli xil tashkilotlar ilmiy jamiyatlar yuzaga keldi. Bular o‘z navbatida xalqni tarixini yoritish, ularni rivojlantirish uchun xizmat qildi. SHulardan biri “Buxoro ilmiy jamiyatidir”. “Buxoro ilmiy jamiyati” Buxoro xalq sovet Respublikasi davrida 1921 yil tashkil etilgan edi. Bu jamiyat o‘lkadagi qadimgi obidalarni muhofaza qilish, xalq amaliy san’atini rivojlantirish, fan tarixiga old qo‘l yozmalar yig‘ish, arxeologik ashyolar va

² Косимов Ф. “Бухоро Республикаси Тарихшунослиги.” Бухоро. 1996 йил. 13-14 бет.

xalq ijodiy namunalarini to‘plab tadqiq etish kabi ishlar bilan shug‘ullangan. Olim, yozuvchi va ma’rifatparvarlardan – Abdurauf Fitrat, Otajon Payrov, Sulaymoniy, Abdulvohid Burhonov (Munzil) Sadriddin Ayniy, Salimbek Samimi, SHarifjon Makdum (Sadr Ziya) Ahmadjon Hamidiy, Musojon Saidjonov, Yo‘ldosh Qori Po‘latov, Siddiqjon (1885-1910)yillarda Buxoro amiri bo‘lgan Amir Abdullaqadxonning ukasi jamiyat a’zolari bo‘lishgan. “Buxoro ilmiy jamiyatini” ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etilgan. Buxorodagi uch shaxsiy kutubxonada saqlangan, sharqshunos, tarix adabiyotiga old qo‘lyozmalar kitoblarni to‘plaganlar. Birgina SHarfjon Maxmud kutubxonasidan 300 jildga yaqin fors – tojik va turkiy tillardagi noyob qo‘l yozma asarlar ro‘yxatga olingan.

Jamiyatda to‘plagan qo‘l yozma asrlar orasida Tarixchi Narshaxiyning “Tarixi Buxoro” (Buxoro tarixi) Ahmad Donishning “Navodirul - vaqoi” (Nodir voqealar) asarlari bor. Jamiyatning “Anjumani tarix” bo‘lish “Buxoro arki tarixining” qo‘l yozma kitobini tayyorlagan. Buxoro ilmiy jamiyatida to‘plagan materiallar O‘zbekiston FASHI qo‘l yozmalari fanidan saqlanadi. SHu jamiyatning rahbaralaridan biri Abdurauf Fitrat 1886 yilda ziyoli oilasida dunyoga keldi. Dastlab eski maktabda, keyin mirarab madrasasida tahsil ko‘rdi. Fitrat Turkiyada tahsil ko‘rgan yillarida badiy adabiyotlar bilan shug‘ullana boshladи. Dastlab publisistik maqolalar yozib “Buxoroi sharif”, Turon gazetalariga yubordi. “Buxoroi sharif” gazetasi mahalliy ma’rifatparvarlik tashabbusi bilan 1912 yil martida fors tiliga nashr qilindi.¹

Ko‘p o‘tmay uning o‘zbek tilidagi “Turon” ilovasi bosmadan chiqdi.² Ko‘p o‘tmay gazetalar yozib qo‘yildi. Ammo jadidchilik harakatini endi to‘xtatib bo‘lmasdi. Ayniqsa Abdurauf Fitrat va ming bir gruh sahifalari o‘qitishni III. Bu davrda Buxoroda juda ko‘p ilmiy – tarixiy muassasalar

¹ Ўзбек миллӣ энциклопедияси 2 том. 2001 йил. Тошкент 208 бет.

² Наимов Н. “Бухоро жадидлари” Тошкент – 2000 йил. 9-11 бетлар.

bo‘lib, ular shu davrda tashkil topgan va rivojlanib borgan. Buxoro davlat Universiteti ilm – fan va ta’lim tarbiya sohasida xalqimiz tomonidan asrlar dovomida shakllantirilgan an’analar yashab kelayotganligini yorqib bir dalillaridir. Bu an’analarning sarchashmalari biri sifatida Buxoroda 712 yilda qurib bitirilgan bir vaqtning o‘zidaham mакtab ham madrasa vazifasini o‘taydi. “Bonu xanzal” masjidini yodga olib o‘tish lozim. 1536 yilda esa butun islom olamiga mashhur mir Arab madrasasi tashkil etilgan. Unda – Maftunquli, YUsuf Narabog‘iy, Turdi, Ahmad Donish, Muqimiylar kabi ulug‘ siymolar iz qoldirgan.³ sharqda “SHayx – ul - rais” nomi bilan dong taratgan Abu Ali Ibn Sino Buxoroning, Buxoro ilm fanining shuhratini olamga yoydi.

U qomusiy olim, benazar tabib etuk faylasuf va yirik musiqashunos sifatida dunyo madaniyatida o‘chmas iz qoldirdi. Buxoroda universitet faoliti ko‘rsata boshlaganligi haqidagi ilk ma’lumotlar 1922 yilga tegishli. Ta’limning texnik vositalari va kutubxonaga ishi sohasida o‘sha davr imkoniyatlari doirasida ma’lum tajribada to‘plagan bu o‘quv yurti halq ta’lim taraqqiyotida o‘zaga xos bir bosqich bo‘ldi. U Germaniya, Angliya, Turkiya univarsitetlari bilan hamkorlik qilar edi. SHunisi diqqatga sazovorki Buxoro jumhuriyatining sardorlari – Fayzulla Xo‘jaev va Qori Yo‘ldosh Po‘latov universitet talabalari auditoriyasida ma’ruzalar o‘qishni o‘z burchlari deb bilgan edilar.

³ Бухоро Давлат университети. Бухоро 1998 йил. 4-8 бетлар.

2-bob. Buxoroda ilmiy muassasalarning faoliyati

2.1. 1925 -1991 yillar sovet davri tarixiy muassasalari: ziddiyat va muammolar

20 yillarda Buxoro maorif instituti faoliyat ko‘rsata boshladi va 1930 yilda Buxoro oliy pedagogika instituti tashkil etildi. Buxoro maorif institutida keyinchalik Stalin qatag‘onining qurbanlari bo‘lgan ilk o‘zbek professorlari - Abdurauf Fitrat (1886-1938) va muso Saidjonov (1893-1938). Ma’ruzalar o‘qigan edilar. S. Orjonikedze nomli Buxoro davlat pedagogika instituti – pedagogik kadrlar tayyorlaydigan oliy o‘quv yurti hisoblanadi. 1938 yil uncha S. Orjonikedze nomi berilgan. 1930 yilda fizika, matematika, ximiya, bialogiya, tarixshunoslik va filologiya bo‘linmalariga esa bo‘lgan Buxoro Davlat Pedagogika instituti o‘z faoliyatini boshladi¹.

1941 – 1945 yillardagi urush instituti faoliyatiga ham o‘zining muthish ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Fashist bosqinshilariga qarshi jangda dastlabki yoldayoq 45 talaba ko‘ngilli bo‘lib fronga yo‘l oldi. Institutning

¹ Бухоро Давлат Унверситети: Бухоро Давлат Педагогика институтининг тарих – география факултети мавжуд бўлиб, Жаҳон тарихи, Ўзбекистон тарих, Тарихшунослик ва манбашунослик кафедраларидан Тарихшунослик ва манбашунослик кафедрасига 1979 йилдан бошлаб, Йўлдошев, 1989 йилдан бошлаб доцент Д.Б.Баракаев бошкарди. Бу вақт ичida кафедра илмий ишларга катта ҳисса кўшди. Бу даврда А.Ш. Жумаев кандидантлик иши устида ишлади. Мавзу оила удумлари, Бухоро воҳасида XIX – XX асрларда ўзбек ва тожик миллатлари ўртасида болани туғилиши ва уни тарбиялаш ҳақида. Курбонова М.И. кандидантлик диссертациялари устида ишляяпти. 1982 йилда жаҳон тарихи кафедраси Ўзбекистон академиясининг археологиясининг археология институти билан биргаликда археологик экспедиция профессор Мухамеджанов А.Р. бошчилигида ишлади. Кафедра ўқитувчиси А.Ш. Жумаев институт археологик илмий ишчиси Мирзаахмедов Ш. Бухоро вилояти музей илмий ишчиси Ниёзов ва тарих факултети талabalari Чор Бақр территориясидаги Мохи Тобон, толи Мурда парти, аэропорт томонларининг қазиш ишлари олиб борилди. Қазилма ишлари давомида эрамиздан аввалги IV асрдан то XII асргacha бўлган маданий нарсалар топилди. Кулдорлик давридаги сопол буюмлар топилди. Нумизматик топилмалар X – XII асрлар тегишли топилди. **2017 ўқув йилидан Археология таълим йўналиши очилган.**

Талabalар билан Тошкент ва Вароҳшада қазилма ишларни олиб борилди. Кафедра топилмалари асосида археологик этнографик музей ташкил этиш режасини тузди.

urushdan keyingi tarixi ilmiy pedagogik o‘quv – uslubiy va texnikaviy potensialining o‘sishi maorif tizimiga yuqori malakali o‘qituvchi qadrlarning etkazib berishi bilan ajralib turadi. Bu ishida Buxoroning tabbarruk turrog‘g‘idan etishib chiqan akademiklar – Sadriddin Ayniy, Usta SHirin Murodov va Ibrohim Mo‘minovning yordami katta bo‘ldi. 60 – 70 yillarda Mustaqil Mirzaev, Ma’di Abdullaev kabi institut professorlarining nomi respublikada ham shuhrat topdi. Turli yillarda bu oliy o‘quv yurti dargohining Muxtor Raxmatov, Juma Namozov, Narmon Jabborov, Vafo Mo‘minov, Farxod Qosimov kabi professorlar boshqardilar. YArim asrdan ortiqroq davr mobaynida institut qadimiylar Turkistonning zamonaviy ilm – fan va ma’rifat markazlaridan biriga aylandi. Uning quchog‘ida Nobel mukofoti laureatlari I.E. Ta’lim va I.I Frank, Jahoniy SHuhrat qozongach, bokira bir qator kishilar ma’ruzalar o‘qidilar. 1981 yilda institut “hurmat belgisi” ordeni bilan mukofotlandi. Fayzulla Xo‘jaev nomidagi Buxoro Davlat universiteti - ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlaydigan oliy o‘quv yurti. O‘zbekiston Prezidenti farmoniga asosan 1992 yil 15 martida B.P.I. (1990) negizida tashkil etilgan. Universitetda 9 ta fakultet bir ijtimoiy o‘quv markazi 5 ta ixtisoslashgan akademik gemnaziya taylorlov kurslari, arxeologya, muzeylari, ma’rifiy va madaniy ishlari klubni bor. Bu davrlarda Buxoroda juda ko‘p jurnal va gazetalar chiqarilgan. Jumladan: “Buxoronoma” gazetasidir. Buxoro viloyati hokimligining ijtimoiy – siyosiy gazeta. Buxoro shag‘rida o‘zbek tilida haftada 2 marta chiqadi. Dastlab “Uchqun” nomi bilan Samarqandda nashr etilib (1920 yil, iyun, sentyabr) Buxoro shahrida “Buxoro axboroti” nashr etila boshlandi. Keyinchalik “Ozod Buxoro” (1923-1930) “Buxoro proshtari” (1930-1938) “Buxoro haqiqati” (1938-1999) nomlari bilan chiqdi. Gazetada turli davrlarda - Fayzullu Xo‘jaev, Fitrat, CHo‘lpon, Said Ahmadlar muharrilik qilganlar. Gazeta sahifalarida – CHo‘lpon, Sadriddin Ayniy, Ibrohim Mo‘minov, Abdulhamid Matidov, Atoulla Xo‘jaev, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jaev,

Mo‘minjon Aminov, Omon Muxtor kabi taniqli arboblar va ziyolilar dorzARB mavzulardagi maqolalar bilan qatnashgan. Gazetaning dastlabki sonlaridan boshlab milliy mustaqillik g‘oyasi undagi maqolalarning bosh mavzui bo‘lgan.¹

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyingi davrlarda “Buxoronomma” shaklan va mazmunan tubdan o‘zgarib, Buxoro viloyati hayotini har vaqtdagidan yaxshiroq yoritishga harakat qilmoqda. Gazetada istiqlol mafkurasini shakllantirish, yosh avlodni iymon – e’tiqodli, Vataniga sadoqatli qilib tarbiyalash, Buxoro shahrini bodonlashtirish va undagi osari – atiqalarni asrab – avaylash mavzulariga doimiy e’tibor berilmuoqda. Buxoro shahrining 2500 yillik yubileyi 1997 yil oldidan turkum maqolalar berdi. Tahririyatda iqtisodiyot, ijtimoiy masalalar, huquq hamda xatlar, ommaviy ishlar bo‘limlari ishlab turibdi. 1996 yilda gazeta kompyuter usulida nashr etiladi. Tahririyat “internet” orqali jahon axborot tarmog‘iga chiqmoqda.

O‘zbekiston tarixi jumladan Buxoro tarixini o‘rganish rus tarixchilarini qiziqtiradi. Rossiya olimlarining katta guruhi bu erda sermahsul tadqiqot olib bordi. Ular orasida yirik va mashhur sharqshunoslар ham ko‘p edi. Ulardan biri Buyuk tarixchi sharqshunos, cheksiz is’tedod sohibi akademik V.V. Bortold (1869-1930) ijodida “Buxoro tarixi” alohida o‘rin tutadi. Bortold o‘zining dastlabki asarlaridayoq Buxoro tarixi bayoniga salmoqli o‘rin ajratgan. Uning 1900 yilda Petzburg unversitetida dissertatsiya sifatida himoya qilingan va alohida nashr etilgan. “Mo‘g‘illar bosqini davrida Turkiston” asarida Buxoroning qadimgi davrdan XIII asrgacha bo‘lgan tarixi yozma manbalar asosida to‘la qonli aks ettirlgan. Samoniylar davlatining poytaxti sifatida Buxoroning Mavorounnahr va Xuroson madaniy siyosiy hayotida tutgan o‘rni yuqorida tilga olingan asarlarda berilgan. Muhammad Narshaxiyning “Buxoro tarixi asrining”

¹ Ўзбек миллий энциклопедияси. 2002 йил. 2 тош. 305 бет. Тошкент.

birinchi tadqiqotchi V.V. Bortold hisoblanadi. Uning shaxsiy tashabbusi va rahbarligi ostida rus sharqshunosi Likolin Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarining rus tiliga tarjima qilib 1897 yil Toshkentda chop etdi. Bortoldning qo’llab – quvvutlashi yordami bilan tarjima oxirigacha etdi. Akademik Bortold o‘zining “Buxoro (tarixi) va uning atrofidagi islomdan oldingi sajdahohlar” asarini Narshaxiy kitobi hamda boshqa qo‘l yozma manbalar asosida yozdi. Olimning bu tadqiqoti Buxoro uning atrofidagi islomgacha mavjud bo‘lgan budda, zardushtiylik ibodatxonalarini arab istilosini davrida ularning masjidlariga aylantirishi, Buxoro shahrining tarixiy topografiyasi va toponikamisi, qadimgi shahriston darvozalari Buxoro shahrining shakllanish avamyusiyasi to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar beradi. Buxoro shahrining paydo bo‘lishi tarixni o‘rgatish bilan shug‘ullangan ko‘p tatqiqotchilar, arxeologlar Buxoroning asariga murojat qilingan. Olimning asarlari ommaviy ahamiyatiga ham ega. 1925 yil uning Bortold Buxoro shahri tarixiy topilmalari uchun ham qayg‘urdi. U Buxoro shahri darvozalarining tarixiy nomlarini saqlab qolish zarurligini uqtirib keldi. 1925 yil Bortold Buxoroga kelganda uni shahar obidalarining g‘aribona ahvoli shahar darvozalari tarixiy nomlarining uzgartirishganligi uni juda achintirdi. 1927 yil Bortold tomonidan yozilgan “Turkiston madaniy hayoti tarixi” bilan qiziquvchilar uchun yaxshi qo‘llanmadir. Unda Buxoroning CHor Rossiyasi yarim mustamlakasiga aylanish tarixi boy yozma manbalar asosida ishonarli qilib yozgan. Demak Bortold Turkiston o‘lkasining Rossiya tomonidan bosib olinishi masalasi borasida tadqiqot olib borgan olimdir. SHarqshunos olimning “O‘zbek xonliklari saroyidagi an’analar” asari Buxoro xoni saroyidagi etnomadaniy masalalarni yorituvchi manba bo‘lib xizmat qiladi. CHunonchi, Buxoro xonlarining taxtga chiqish marosimi, marosim ishtirokchilarining etnik mansubligi egallab turgan lavozimi, joylashish martabi haqida muallif ma’lumot keltirgan.¹ Akademik

¹ Инсониятнинг илмий – маданий мероси – учинчи минг йилликда. Тошкент 1997 йил. 109 бет.

Bortold asarlari hozirgi davrgacha o‘z qiymatini yo‘qotgan emas. Buning boisi ularning ilmiyligi hech qanday mafkuraga bo‘ysinmay xolisona yozilganligigadir. Buxoro tarixini o‘rganishga sharqshunos A.A. Semyonov (1873-1958) katta hissa qo‘sidi. U Moskvadagi Lazarevekiy SHarq tillar institutida o‘qib yurgan kezlardayoq (1827 yil) Markaziy Osiyoga tashrif buyuradi va o‘shandan buyon o‘z asarlarini shu hududning tarixiy o‘tmiini o‘rganishga, shu jumladan “O‘rta Osiyo musulmonlari uchun maqaddas” bo‘lgan Buxoroning o‘tmishi va bugunini Buxoroninng o‘tmishi va bugunini tadqiq etishga bag‘ishladi. Ko‘p o‘tmay, matbuotdat, uning safar xotiralari paydo bo‘ldi. “Muqaddas Buxoroda” (1897) “Buxoro sarhadlari bo‘ylab” (1902). Keyin uning “Muqaddas Buxoroning vujudga kelishi” (1903).

“Buxoroning ikkita qadimiy mis idishi” (1910) “Buxoroning shayxi Bahuviddin” (1914) “Buxoro mang‘itlari tarixiga old” (1924), “Aleksandr I bilan amir Haydar Buxorosi o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar tarixiga doir” (1945) XIX asr boshlarida Rossiya bilan Buxoro o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar tarixiga doir (1951). SHarqshunos V.L.Vyatkin Buxoroning shahar kitob bozori xalqda maxsus asar yozgan, 1925 – 1935 yillarda faoliyat olib borgan Qadimiy va San’at obidalarini saqlash va o‘rganish Buxoro qo‘mitasi (Buxoro istiris)ning sermahsul, ijod qilgan. Uning tarkibida turli millat vakillari bo‘lib, asosiy qismini, o‘zbeklar tashkil etgan. O‘shbu qo‘mita faoliyati Buxoro shahri viloyatidagi tarixiy me’roschilik va boshqa obidalarni muhofaza qilish, ta’mirlash, tiklash va o‘rnatish ishda, yangi sahifalar ochdi. Arxeologik V.A. SHishkinning ilmiy faoliyati ushbu qo‘mita ishida qatnashishdan boshlangan. U Buxoroning qadimiy va ko‘hna obidalarini o‘rganishga kattta hissa qo‘shgan va shu qo‘mitani ma’lum vaqt boshqargan. “Buxoroning me’morchilikning yodgorliklari” (1936) “Buxoro vohosida oxeologik ishlar” (1940) “Buxoroning yangi qurilishdagi kuzatuvlardan” (1940), Buxoro vohasining arxeologik o‘rganishi (1947) Buxorodagi katta jome masjidi peshtoqidagi

yozuvlar XVI asr (1947) “Mag‘oni Attoriy masjidi” XII asr (1948) va boshqa asarlar uning qalamiga mansub. Buxoro yaqinidagi Buxor xududlarining qarorgohi - varaxshadagi qazilmalar ham bevosita V.A. SHishkin nomi bilan bog‘liq. Buxoro shahar hayotini tadqiq etishga O.A. Suxarevaning salmoqli tarixiy – etnografik asoslari katta hissa qo‘shti. Ularda Buxoroning ijtimoiy tuzilish, shahar aholisining turmush va mashg‘ulotlari, hunarmandchilik ishlab chiqarishi hamda uning O‘zbekiston iqtisodiyoti va madaniyati tutgan roli mufassal bayon etilgan. O.A. Suxarevaning Buxoro va uning aholisi turmush tarixi bo‘yicha ana shu 30 yillik tadqiqotlari yakuni eski Buxoroning tarixiy topografiyasi va etnografiyasi bo‘yicha bilimlarining qimmatli manbai hisoblanadi.¹ San’atshunos L.I. Rempelning g‘oya va mazmuni jihatidan o‘ziga xos bo‘lgan “Buxoro qaydnomalari” kitobi O.A. Suxareva asarlari bilan qo‘shib ketadi. YUqorida bayon etilganlardan ko‘rinib turibdiki, Buxoro tarixi bo‘yicha asarlar ko‘pligiga qaramay, yaqin – yaqingacha majmuaviy, umumlashtiruvchi asar bo‘limgan. SHu jihatdan tirixchi olimlar tomonidan 1976 yilda yaratilgan “Buxoro tarixi” asari katta ahamiyat kasb etadi. Bu to‘plangan barcha ilmiy ma’lumotlar asosida qadimgi davrlardan to 1970 yillarning boshlarigacha bo‘lgan shahar tarixini tiklashga ilk bor intilishdir. Kitobda Buxoroning tarixidan ilgari o‘tmishi, shaharning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida hamda Rossiyada 1917 yilgi oktyabr to‘ntarishidan keyingi davr tarixi yoritiladi. Garchi mazkur kitobdagagi ma’lumotlarning talaygina qismi eskirib, tarixshunoslik nuqtai nazaridan hozirgi yo‘nalishiga muvofiq qayta ko‘rib chiqishni taqozo etsada, biroq bu asar mazmunan va ayniqsa, foktik materiallarning serobligi jihatdan hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. Buxoroning uzoq qadimdan to bizning kunlargacha bo‘lgan tarixiga old yangi ilmiy ommabop asarlar orasida Buxoro tarixi bo‘yicha bir qancha asarlar muallifi (“Qadimgi yurtning bugungi” “Buxoroning me’moriy

¹ Бухоро шарқ дурдонаси. 1997 йил. 181-182 бетлар.

durdonalari”, Buxoro: o‘tmishi va bugungi kun va boshqalar) V.G.Saakovning (“100 savoliga 100 javob”) kitobini aytib o‘tish joiz. Asar g‘oyalarining va materiallarining yangiligi, bayonning qat’iy ilmiyligigiga va ravonligi bilan ajralib turadi.

2.2. Mustaqillik yillarida Buxorodagi ilmiy muassasalar faoliyati va ularning tarixiy merosimizni o‘rganishdagi xizmatlari

1991 yil 31 avgust o‘zbek xalqi va umuman O‘zbekiston xalqlari, shu jumladan Buxoro aholisi hayotida unitilmas sana bo‘ldi. – O‘zbekiston mustaqilligi e’lon qilindi. Mustaqillikka erishgandan so‘ng mamlakatda shu jumladan qadimiyligi Buxoroda ilmiy texnikaviy va ma’naviy salohiyati, boy ilmiy – madaniy merosi o‘zbek xalqining hayoti bilan qiziquvchi xorijlik sayyolarni, turli soha vakillarini o‘ziga jalb etmoqda. Mustaqil Buxoro uchun jahon eshiklarini lang ochib berdi. Natijada o‘tgan yillar davomida Buxoroni jahon keng jamotchilik bilan tanishtirish imkoniyati tug‘ildi. Ayniqsa Buxoro Tojik o‘rtasidagi ijtimoiy – madaniy aloqalar ravnaq topdi.¹ 1993 yilning oktyabrida Buhoro shahar hokimi U.Nosirov O‘zbekiston delegatsiyasi tarkibida borib, u erda o‘tkazilgan suhbat va uchrashuvlar davomida Buxoroning insoniyat sivilizatsiyasiga salmoqli hissa qo‘sghanini, jahon ahamiyatiga molik me’moriy yodgorliklar to‘g‘risida so‘z yuritdi. 1991 yil may oyida Parijda tashkil etilgan “Buyuk ipak yo‘li – muloqot yo‘li” ekspeditsiyasi mutaxassislari Buxoroga tashrif buyurdilar. Mehmonlar shahardagi asari – atiqalar, yodgorliklar bilan tanishar ekanlar muzey – shahar, uning boy madaniy merosi jahon sivilizatsiyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatganligini ta’kidlashdi. Jahondagi xalqaro nufuzli tashkilotlar – YUniko e’tiborini tortgan Buxoroiy SHarifga qiziqishi orta bordi. 1991 yilning noyabrida tashkilotning mustaqil eksperti Djon Uorren Buxoroga tashrif

¹ Сафар Аҳмедов “Жаҳон хазинаси жавоҳирлари”. “Бухоро нашриёти”. 1997 йил. 10-11 бетлар.

buyurdi. U ko‘hna shaharning me’moriy merosi bilan chuqur tanishar ekan, Buxoroni dunyo ahamiyatiga ega bo‘lgan shaharlar ro‘yxatiga kiritish lozimligi haqidagi xulosani xalqaro madaniyat va muassasasining Parijdagi qarorgohiga yubordi. SHunday qilib, Buxoro madaniy merosi bilan bog‘liq barcha hujjatlar Parijga, xalqaro tashkilot qarorgohiga jo‘natildi.

YUqori malakali ekspertlar hujjatlarni sinchiklab ko‘zdan kechirgach, 1995 yilning kuzida Buxoro YUNESKONING jahom madaniy qadyatlar ro‘yxatiga kiritildi. Parijda o‘tkazilgan YUNESKONING 28 – sessiyasi (1995 yil 25 oktyabr – 15 noyabr) qadimiylar Buxoroning jahon shuhratini dunyo xalqlari orasida targ‘ib qilishda tarixiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Sessiyada O‘zbekiston delegatsiyasi qatnashib, Buxoroning 2500 yilligini, YUNESKONING 1996 – 1997 yillarda o‘tkaziladigan tadbirlar ro‘yxatga kiritishni taklif etdi. Bu taklif yakdillik bilan qabul qilindi. Natijada Buxoroliklar 2500 yillik yubeleyga qizg‘in kirishib, keng qo‘llashni ishlarni boshlab yubordilar. YUBELEY obektlari hisoblangan Masjidi Kalon, Ark, Mir Arab, Sarrofon hammomi maqbarasi, Zindon, CHorminor, Xo‘ja Kalon, Ismoil Samoniy maqbarasi, Nodir Devonbegi madrasasi, Abdullajon, Modarixon, Ko‘kaldosh madrasalari Badriddin karvonsaroyi kabi tarixiy va me’morchilik yodgorliklarini ta’mirlash qizg‘in olib borildi.¹

Ma’lumki Buxoro Temur va temuriylar zamonida Samarqanddan keyin Hirot, Balx shaharlari qatorida katta nufuzga ega bo‘lib, Sohibqironning siyosiy, madaniy va harbiy rejalarini amalga oshirishgda katta tayanch rolini o‘ynagan. Binobarin, Amir Temur davlati tarixini yaratish jarayonida fransuz tadqiqotchilari Buxoro mavzuini ham chetlab o‘tmaganlar.¹ YUNESKO bosh konfrensiyasining qarori bilan 1996 yilda Amir Temurning 660 yilligi butun dunyoda nishonlandi. Parijda “Temuriylar davrida fan, madaniyat va ta’lim ravniqi” mavzuida O‘zbekiston madaniyati haftiligi o‘tkazildi.” Temuriylar

¹ Жаҳон тарихи жавохирлари. Бухоро 1997 йил 38-39 бетлар.

¹ Л.Керен. А. Сайдов. Амир Темур ва Франция. Тошкент 1996 йил 33 бет.

davri va tarixi san’atini o‘rganish va o‘zbek – fransuz madaniy aloqalari uyushmalari” hamda O‘zbekiston Fanlari Akademiyasi hamkorligida Temuriyshunos olimlarning halqaro ilmiy anjumanio‘tdi. Sohibqiron tavalludining 660 yilligi munosabati bilan 1996 yilning sentyabrda Toshkentda fransiya elichixonasi va 1991 yilda tashkil etilgan.

Markaziy Osiyoni o‘rganish instituti tomonidan ilmiy davra yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Bu yig‘ilishda Buxoro tarixi masalalariga etarli e’tibor berildi. Jumladan fransuz SHarqshunosi Iv Porter o‘z ilmiy axborotida Buxoroning XVIIasr san’ati tarixiga old ma’lumotlarni tahlil qildi. SHu ilmiy yig‘inda Buxoro davlat muzey qo‘riqxonasi qo‘lyozmalar xodimi, tarix fanlar nomzodi B.Qozoqov Ashtarkoniylar davrida madaniy va ilmiy jarayonlarning so‘nmagani haqida yangi fikr xulosalarni bayon qildi. Markaziy Osiyoni o‘rganish fransuz tadqiqot instituti o‘zining maxsus ilmiy davra majlisini Buxoroning 2500 yilligiga bag‘ishlanadi. O‘zbekiston poytaxtiga jadidchilik harakati tarixi muammolariga bag‘ishlangan ilmiy anjuman ham fransuz olimlari tashabbusi bilan tashkil etilib, unda O‘rta Osiyoda bu harakatni keltirib chiqargan shart – sharoitlar, jadidchilik mohiyati va taqdiri haqida bayon qilingan fikr – xulosalar Buxoro jadidchiligi tahliliga asoslangan holda shakllantirilganligini qayd etish lozim.

Keyingi 5-6 yilda Parij va Buxoro aloqalarining jonlanishini Evropa va Osiyoda mashhur siyosiy va madaniy markazlar o‘rtasida o‘rta asrlarda boshlangan munosabatlarning mantiqiy davomi deb hisoblash mumkin. Asrlar: guvoh Bu ikki manzil doim bir – biriga intilgan, masofaning uzoqligi til va dinning boshqaligiga qaramasdan bir –birin tushinishga harakat qilgan, o‘zga yurtni o‘rganib, o‘z ma’naviy dunyosini boyitishga urindi. Buxoro va Parij umriinsoniy qadriyatlarga doim sodiq bo‘lib, tinchlik, mamlakatlar va xalqlar o‘rtasida do’stlik, iqtisodiy taraqqiyot, madaniyat va ma’naviyatini yuksak pog‘onalarga ko‘tarishga samarali aloqalar va hamkorlikni yanada mustahkamlaydilar. Qadimiy Buxoroning 2500 yillik bayrami bu

maqsadlarga erishishida qo‘yilgan katta va qutlug‘ qadam bo‘ldi. Parijdagi tantanalardan boshlangan Buxoro to‘yi jahonga yuz olayotgan O‘zbekistonni fransiya bilan yanada yaqinlashtirib, insoniyat, orzularining ushalishiga xizmat qiladi.

1993 yilning sentyabrda Fransiyaga rasmiy tashrif bilan bergan O‘zbekiston Prezidenti I.A.Karimov bu mamlakatning noyob madaniyat, nafis san’at, yuksak ma’rifat, turmushning dono falsafasi, insonparvarlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan adabiyot va she’riyat mamlakati ekanligini uqtirib bu madaniyat va ma’naviyat rivojlangan asrlarda O‘rta Osiyoning mashhur shaharlari – Samarqand, Buxoro boshqa maskanlarning SHarqda katta mavqe va shuhratga ega bo‘lganini alohada ta’kidladi.¹ Fransiya Respublikasi Prezidenti Fransa Mitteran M.O. Xalqlari boy madaniy merosga yuksak baho berib shunday deydi! “Biz Avitsena deb ataydigan ulug‘zot tufayli G‘arb Arrestotel asarlarini o‘rgandik. U erda san’atning hamma turlari gullab – yashnadi. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlarga shon – shuhrat keltirgan me’moriy yodgorliklar shundan dalolatdir”.² 1994 yilda Mirzo Ulug‘bek yubeleyi butun dunyo miqiyosida nishonlanib mustaqillik yillarida Buxoro tarixini yoritishda juda ko‘p asarlar yaratildi. Jumladan: Tarixchi olimlardan V.CH. Saokovning “Buxoro 100savolga 100 javob”i F.H. Qosimovning “Buxoro tarix” “Asrlar sadosi” kitoblari shuningdek, “Buxoro tarixi” afsona va faktlar, kitoblari bosmadan chiqdi.³ Mustaqillik yillarida Buxoroda yashagan va ijod etgan bir qancha yurtdoshlarimizning tavallud bayramlari bo‘lib o‘tdi. Umuman bir yilning ichida o‘zbekiston Prezidenti Buxoroning 2500 yiligini nishonlash; Masjidi Kalonni ta’mirlash, Buxoroning asl farzandlari – Fayzulla Xo‘jaev, Abdurauf Fitratning yubeleylarini o‘tkazish to‘g‘risidagi hujjatlarni imzolaganliklari yurtboshimizning ona shahrimizga

¹ “Халқ сўзи”, 1993 йил. 2 ноябрь.

² Ўша жойда.

³ Аҳмадов С. Жаҳон хазинаси жавоҳири Бухоро. 1997 й.

mehr – murhabbatlari belgisidir.¹ Fitratning ilmiy ozodlik yo‘lidagi ulkan sa’yi harakati, keng jamoatchilik fikrini shakllantirishga qo‘yan bebaho hissasi alohida e’tirof etilib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1996 yilning 22 fevralida Abdurauf Fitrat tavalludining 110 yosh 1 mingni nishonlash to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Ana shu munosabat bilan 20 dekabrda O‘zbekiston Fanlar akademiyasida Abdurauf Fitratning 110 yilligiga bag‘ishlangan tantanali majlis va ilmiy anjuman o‘tkazildi. Anjuman Respublika rahbariyatining marifatparvarlik orqali ilmiy istiqlol g‘oyalarin olg‘a surgan. Jadidlar xotirasini abadiylashtirishga ko‘rsatayotgan e’tiborini alohida takidlardilar. Ilmiy anjuman qatnashchilari Abdurauf Fitratning jadidchilik harakatida tutgan o‘rni, ijtimoiy g‘oyalar, abadiy va ilmiy merosining bugungi kundagi ahamiyati haqida ham gapirdilar. SHunday tantanalar Abdurauf Fitratning ona yurti Buxoroda bo‘lib o‘tdi. Hozirda Buxoroda bu olimlarimizning har qadamida xotirlaymiz. Fayzulla Xo‘jaev uy muzeyi hozirda yurtdoshlarimiz, shu bilan xorijiyliklarni ziyoratgochlarga aylangan. SHunday ekan biz buyuk ajdodlarimizni ilmiymerosini yosh avlodga sof holda etkazishimiz shart.

Ikkinchi fazilatimiz shundan iboratki, ma’rifatli xalq izlanuvchan va bunyodkor bo‘ladi. Har qanday qiyinchiliklarda cho‘chimaydi, kuch – quvvut, katta idora sohibi bo‘ladi. To‘sqliarni engib chiqadi. Eng og‘ir va ziddiyatli paytlarda ham istiqboshini aniq ko‘ra oladi. Unga etishmoq yo‘llarini topa biladi. Uchinchidan, ma’rifatli yuksak ma’naviyatni xalq milliy birlik, milliy yaxlitlik namunasini ko‘rsatadi. Jamiyat qarama- qarshiliklarini, turli kuchlarni enga oladi. Millat yaxlitligi orqali manfaatlar yaxlitligiga erishadi. Bunday xalqni engib o‘tadigan kuch bo‘lmaydi. Mustaqillikning o‘tgan davri – tarix uchun bir lahma, bepoyon osmon kengliklarida chaqnagan chaqin kabidir. Biroq istiqlolning murakkab, dog‘lariga to‘la ziddiyatli bir paytda xalqimiz boy ma’naviyatini misisiz iqtidorini, beqiyos irodasini yaqqol namoyon qiladi.

¹ Шу асап 36 бет.

Ayni shu muddatda mamlakatimizda oilaga oshirilgan ishlar salmoqli va qo'llashi bilan bir necha o'n yilliklarga teng keladi.

Hozirgi kunda BuxDU huzurida “Buxoro tarixini o‘rganish markazi” faoliyat ko‘rsatmoqda. Professor SH.Hayitovning tashabbusi bilan Buxoro tarixi va arxeologiyasiga oid bir qator ishlar amalga oshirilmoqda:

1.Buxoro davlat universiteti huzuridagi “Buxoro tarixini o‘rganish” markazining nizomi ishlab chiqilgan va rejasi mavjud, shuningdek, “Buxoro tarixini o‘rganish” markazi a’zosi sifatida faoliyat yurituvchi xodimlar 13 nafardan iborat. Ular tarkibi rahbar, ijrochi direktor, 2 nafar professor, 3 nafar katta o‘qituvchi, 4 nafar o‘qituvchi, 2 nafar iqtidorli talabalaridan tuzilgan.

1. SH.Hayitov -“Buxoro tarixini o‘rganish” markazi rahbari, professor
 2. K. Rahmonov -“Buxoro tarixini o‘rganish” markazi ijrochi direktori, dotsent
 3. S.Inoyatov -a’zo, professor
 4. H.To‘raev-a’zo, professor
 5. A.Hamroev-a’zo, katta o‘qituvchi
 6. B.Boltaev-a’zo, katta o‘qituvchi
 7. M.Orziev-a’zo, katta o‘qituvchi
 8. B.Rizaev-a’zo, o‘qituvchi
 9. J.Hayitov-a’zo, o‘qituvchi
 - 10.J.Majidov-a’zo, o‘qituvchi
 - 11.B.Bobojonov-a’zo, o‘qituvchi
 12. A.Axmadov-a’zo, talaba
 - 13.SH.Mirzaev-a’zo, talaba
2. Buxoro shahrining arxeologik ob’ektlarini yangidan o‘rganish, shahar yoshini qadimiylashtirish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan chora-tadbirlar ijrosini ta’minlash bo‘yicha ishchi guruhning tarkibidagi yo‘nalishlar bo‘yicha shakllantirilgan

kichik ishchi guruhlari va ularning faoliyati yuzasidan belgilangan chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi.

3. “Etti pir” ma’naviy merosi va ziyyaratgohlarini targ‘ib qilish konsepsiysi asosida 2017 yilning noyabr-dekabr oylarida iqtidorli talabalarning 6 nafari o‘qitilib, turli soha mutasaddilari fermer, mahalla faollari, nafaqaxo‘rlar ziyyaratiga ekskursavodlik qildi.

4. Buyuk muhaddis olim Imom al-Buxoriyning ona yurti Buxoroda me’morial majmuasini yaratishning konseptual asosnomasi yaratildi va viloyat xokimligiga tavsiya etildi.

5. Markaz harakati bilan Buxoro davlat universitetida arxeologiya ta’lim yo‘nalishida bakalavrлarni tayyorlash, arxeologik qazish ishlari uchun mahalliy kadrlar bazasini shakllantirish yuzasidan amaliy harakatlar boshlab yuborildi.

2017 yil 14 oktyabrdan mahalliy arxeolog olim, dotsent A.SH.Jumaev talabalarimizga 2 paralik master-klass tashkil etdi.

2017 yil 14 dekabrdan O‘zMU professori R.H.Sulaymonov Buxoroning arxeologik ob’ektlari bo‘yicha talabalar bilan davra suhbat o‘tkazdi.

6. 2017 yil 22 oktyabrdan “Buxoro shahar kuni” festivali doirasida “Ko‘hna va boqiy Buxoro” mavzusidagi Xalqaro ilmiy anjumanda markazning 3 nafar a’zosi yalpi majlisda ma’ruza qildi. Markaz a’zolarining fikr-mulohazalari asosida 7 banddan iborat anjuman rezolyusiyasi tayyorlandi.

7. 2017 yil 15 dekabrdan ikkinchi marta “Buxoro tarixi masalalari (eng qadimgi zamonlardan hozirgacha)” mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy anjumanini tashkil etildi va o‘tkazildi. 70 dan ortiq mualliflarning tezislaridan iborat anjuman to‘plami chop etildi. 3 nafar olim O‘z R FA Tarix instituti bo‘lim boshlig‘i t.f.d., professor Q.K.Rajabov, t.f.d. A.Otaxo‘jaev, O‘zMU professori R.H.Sulaymonovlar anjuman yalpi majlisida o‘z ma’ruzalari bilan qatnashdilar.

8. Markaz a'zolari sa'y-harakatlari (ijrochi direktor A.Hamroev) bilan “Qatag‘on qurbanlarini yod etish muzeyi” Buxoro viloyat bo‘limini ochish ustida ish olib borilmoqda. 2017 yil 22 noyabrda O‘z R VM ning 936-son qarori barcha viloyatlardagi oliygohlar huzurida “Qatag‘on qurbanlarini yod etish muzeyi” Buxoro viloyat bo‘limini ochish, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining ushbu qaror bo‘yicha 869-son buyrug‘i, 2017 yil 28 noyabrda chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan. 2017 yil 1 dekabrdan BuxDU rektorining 728-U buyrug‘i asosida ishchi guruh shakllantirilib, chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi. 2017 yil 22 dekabrdan 7 kishidan iborat ishchi guruh tashkil etildi (ijrochi direktor A.Hamroev va uning a'zolari markaz xodimlari hisoblanadi). 2017 yil 13-15 dekabr kunlari ijrochi direktor “Respublika qatag‘on qurbanlari muzeyi”da bo‘lib, ko‘rsatmalar olindi, fondlarda Buxoroga tegishli ma'lumotlar olib kelindi. Ochilajak muzeyning tematik plani ustida ishchi guruh faoliyat yuritmoqda. Takliflar tayyorlanmoqda: eksponatlar joylashuvi uchun 4 ta blok, 8 ta bo‘lim, 3 ta katta zal talab qilinadi. 58 ta fotonusxa mavjud, Muso Saidjonovning nabirasi SH.Saidjonovdan 3 ta hujjatli film olindi.

9. “Buxoro tarixini o‘rganish” markazi a’zosi, Tarix kafedrasи iqtidorli talabasi A.Axmakov Navoiy stipendiyasiga sazavor bo‘ldi.

Xulosa

Dunyoda faqat ikki hokim bor – qilish va aql – idrok, og‘ir – oqibat har doim aql – idrok qilich ustida g‘alaba qozonadi, degan edi mashhur arboblardan biri. Darhaqiqat, har qanday yovuz kuch aql – zakovat, tafakkur va ilm oldida ojizdir. Zakovatning qudrati uning bunyodkorligida, eng og‘ir paytda ham yaxshilik va ezgulik yo‘lini g‘alaba yo‘lini topa bilishda.

Zakovat va tafakkur tayanchi esa ma’rifat ma’naviyat hisoblanadi. Tarixni bilish, ajdodlarning ishini ana shu ikki buyuk qidriyatini sarchishmasidir. O‘zligin pnglpgpn. Uzoq o‘tmishini bilgan kishi olis istiqbolini ham ravshanroq ko‘radi, aniqroq idrok etadi. Demak, hayotda o‘z o‘rnini topa biladi. Hech qachon qadru qimmatini yo‘qotmaydi. Demak, tarix tafkkuri va fikricha davom etuvchi ilohiy qudrat! Demak bu ma’rifatli inson va ma’rifiy jamiyatning birinchi fazilati. O‘tmishi buyuk xalq bo‘lishiga ishonadi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, shu davlarning bir qismi hisoblangan – Rim va Samarqand tengdoshi Buxoroi SHarifning muqaddas tarixi har inson qalbini to‘lqintiradigan mo‘jizalar kuchiga ega. Buxoro qadimdan to hozirga madaniyat va ilm – fan markazi bo‘lib kelgan va davom etib kelyapti. SHunday ekan XX asr davomida Buxoroda juda ko‘p ilmiy – tarixiy muassasalar faoliyat ko‘rsatgan. Ular ma’lum bir davrda rivojlanib ma’lum bir davrda tarix sahnasidan ketgan. Masalan: Buxoro amirligi davrida ma’naviy – ilmiy hayotda nazar tashlasak, bu davrda ijod qilgan amirlar, tarixnavislar, ko‘pchilagini tashkil etadi. Ulardan Ahmad Doniy, Sadriddin Ayniy va boshqalar o‘z asarlari, ijodlari bilan xalq ishonchiga kirib borganlar va ilm – ma’rifatni rivojlantirishga sabab bo‘lganlar. Respublika davrida (1920-1924) yillar esa Buxoroda ilmiy – jamiyat tashkil etib shu tashkilotning rahbarlari Fitrat, Otajon Payrov Sulaymoniy, Abduvohid Burxonov, Sadriddin Ayniylar xalqni ma’rifatli qilishga madaniyatni yuksaltirishga harakat qilganlar. SHo‘ro

davrida esa ilmiy – tarixiy muassasalar deyarli rivojlangan edi. Qadrlar siyosatdan ham bilsa bo‘ladi. Mustaqillik yillarda unut bo‘lgan qadimiy madaniyatimiz tiklandi, ilmiy – tarixiy muassasalar faoliyatiga keng yo‘l olib berildi. Hozirda esa ilmiy tarixiy muassasalar soni ko‘payib rivojlanib bormoqda. Ularni yanada rivojlantirib boyitish biz yosh avlodlarning asosiy vazifalarimizdir.

Ushbu bitiruv malakaviy ish mavzusida ko‘tarilgan masalalar va bu muammolarni echish yo‘llari va erishilgan natijalar o‘ylaymanki ahamiyatlidir. SHu maqsadda men o‘zimning bir necha **tavsiyalarimni** berib o‘tmoqchiman:

1. Avvalo, bizning milliy davlatchiligimiz tarixini mukammal bilish va ongli anglashni kuchaytirish uchun ilmiy tarixiy muassasalarni ko‘paytirish kerak.
2. ilmiy tarixiy muassasalarni faoliyatini o‘rganish maqsadida taqqoslash, qiyoslash va turli xil musobaqa ko‘rinishdagi dars shakllaridan foydalanib o‘tilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.
3. O‘rta maxsus talim dargohlarida va Oliy o‘quv yurtlarida talabalari ongida milliy g‘urur, ona Vatanga bo‘lgan yuksak hurmat, vatanparvarlik kabi tuyg‘ularni o‘sdirishda ilmiy tarixiy muassasalarni ahamiyatli ekanligini anglatish uchun talaba yoshlar orasida ushbu mavzuda seminarlar, konferensiylar va ko‘rik tanlovlardan o‘tkazilib turilsa yaxshi bo‘ladi. Bundan tashqari oliy o‘quv yurtlari kafedralari qoshida tashkil etilgan iqtidorli talabalarning to‘garaklarida ushbu masalalarga ko‘proq vaqt ajratishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi.
4. BuxDU huzurida “Buxoro tarixini o‘rganish markazi” faoliyatini yanada jonlantirish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Rahbariy adabiyotlar:

1. **Mirziyoev SH.M.** Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. -592 b.
2. 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha HARAKATLAR STRATEGIYASI
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning mamlakatimizni **2016** yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va **2017** yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi MA'RUFASI // Xalq so'zi. **2017** yil **15** yanvar.
4. Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. –T.: "Turkiston". 1999, 2-fevral.
5. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz keljak yo'q. - T.: "Sharq", 1998.
6. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: "O'zbekiston", 1997.
7. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda, Toshkent, 1999.
8. Karimov I.A. O'zbek halqi hech qachon hech kimga qaram bo'lmaydi. T. 13.-T.: O'zbekiston, 2005.-b. 183, 184, 189.
9. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. -T.: "Ma'naviyat", 2009.

Maxsus adabiyotlar:

1. Aliev S. "Utilmas sahifalar" 1986 yil.
2. A.Hasanov . "Fayzulla Xo'jaev" Toshkent. 1980 yil.
3. Amir Sayyid Olimxon. "Buxoro xalqining hasrati tarixi". Toshkent. 1991 yil.
4. Aliev S. "Buxoroda bitilgan baytlar". Toshkent. 1992 yil.

5. “Ma’rifat” 1992 yil. 8 apral.
6. “Guliston” 1993 yil. 7-8 son, 23 bet.
7. Lunin. “Istoriya Buxoty” 1976 yil.
8. Rumpel L.I. “Domskoe i blijoe” Toshkent. 1981 yil.
9. Qosimov F.H. “Buxoro -Tarix asrlar sadosi”.
10. Sadriddin Ayniy “Hayoti va ijodi” Toshkent. 1994 yil.
11. Qosimov F.H. “Buxoro Respublikasi tarixshunosligi”. Buxoro. 1996 y.
12. “YUrakdagi Buxoro” Toshkent. 1998 yil.
13. “Jadidchilik islohot yangilanishi mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash”. Toshkent. 1999 yil.
14. “Buxoro sharq durdonasi” 1997 yil.
15. Naimov N. “Buxoro jadidlari” Toshkent. 2000 yil.
16. O‘zbekiston tarixi. 2-3 tolilar 2000 yil.
17. Istiqlol yillari milliy qadriyatlarning xalqqa qaytishi “Buxoro” 2001 yil.
18. “Buxoro Davlat Universiteti”. Buxoro. 1998 yil.
19. Ahmedov S. “Jahon xazinasi javohirlari”. Buxoro. 2005 yil.
20. Buxoro tarixi sahifalari. Buxoro. 1993 yil.
24. Hayitov SH. Buxoro ilmiy jamiyati // O‘zME.2-tom.-B.294.

Elektron ta’lim resurslari

1. www.gov.uz
2. www.press-service.uz
3. www. Ziyonet. uz
4. www. edu. uz
5. Infocom.uz elektron jurnali: www.infocom.uz